

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG‘ARMALARI FAKULTETI

“PENSIYA ISHI” KAFEDRASI

XUDOYOROV HOMID MURODILLO O‘G‘LI

**“DAVLAT PENSIYA TA‘MINOTINI BOSHQARISH
ORGANLARI, ULAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH
MASALALARI”**

5231300 -“Pensiya ishi” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Pensiya ishi” kafedra mudiri

_____ **i.f.n. B.Mamatov**

“ _____ ” _____ 2016 y.

Ilmiy rahbar:

_____ **k.o‘q. Sh. Hamdamov**

“ _____ ” _____ 2016 y.

TOSHKENT – 2016

MUNDARIJA:

| | |
|--|-----------|
| KIRISH | 3 |
| I BOB. DAVLAT PENSIYA TA'MINOTINI BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI | 7 |
| 1.1. Davlat pensiya ta'minoti tizimi, uni boshqarishning zarurligi va ahamiyati | 7 |
| 1.2. Davlat pensiya ta'minotini boshqaruv organlari, ularning vazifalari, vakolatlari va faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari | 11 |
| II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI MOLIYAVIY RESURLARINI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATINING TAHLILI | 27 |
| 2.1. Davlat pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarining shakllanishi va uni boshqarish holatining tahlili | 27 |
| 2.2. Davlat pensiya ta'minoti moliyaviy resurslaridan foydalanishni boshqarish holatining tahlili | 37 |
| III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTINI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI | 56 |
| 3.1. Pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish orqali pensiya ta'minotini boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtirish | 56 |
| 3.2. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish va unda horij mamlakatlar ilg'or tajribalaridan foydalanish masalalari | 64 |
| XULOSA | 71 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI | 75 |

KIRISH

Bitiruv-malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Hozirgi kunda iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Ijtimoiy ta'minot va pensiya tizimi sohasining boshqaruv organlari tizimi ilmiy usullarga tayanib, aholi turmush darajasini oshirish maqsadida barcha ijtimoiy jarayonlarga kompleks ta'sir qiladi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi, aholi turmush darajasining uzluksiz oshib borishi, fuqarolarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirilishi, ijtimoiy guruhlarining moddiy ta'minoti davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishiga aylanadi. "2015-yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 2010-yildagi 47,1 foiz o'rniga 52 foizga o'sgani va bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi ko'rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori ekanini alohida ta'kidlashni istardim. Yurtimizdagi 10 foiz ta'minlangan va 10 foiz yetarlicha ta'minlanmagan aholi daromadlari o'rtasidagi farq, ya'ni "detsil koeffitsenti" deb nom olgan ko'rsatkich barqaror pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, bu raqam 2010-yildagi 8,5 foiz o'rniga 2015-yilda 7,7 foizni tashkil etdi. Daromadlar o'rtasidagi farqni ifoda etadigan yana bir xalqaro ko'rsatkich – Jini indeksi mamlakatimizda 2010-yildagi 0,390 o'rniga 2015-yilda 0,280 ni tashkil etdi va bu natija dunyoning ko'plab iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlariga qaraganda ancha pastdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida mustaqil tashkilotlar guruhi va xalqaro ekspertlar ishtirokida 2015-yilda 158 ta davlatda "Dunyoning eng baxtli mamlakatlari" degan mavzuda tadqiqot o'tkazildi. Har qaysi mamlakatning o'z fuqarolarini baxtli hayot bilan ta'minlash qobiliyatini ifoda etadigan ushbu indeks bo'yicha O'zbekiston 44-o'rinni egalladi. Aytish joizki, yurtimiz 2013-yilda bu reytingda 60-o'rinda edi"-

deydi Prezidentimiz I.A. Karimov o‘z ma‘ruzalarida¹.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatda amal qilayotgan davlat pensiya tizimini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish va jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Pensiya jamg‘armasining ijtimoiy institut sifatidagi faoliyatidan kelib chiqqan holda, bosh masala, byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiyaga chiqqan barcha fuqarolarning moddiy ta‘minotini barqaror mexanizmini yaratish vazifasi to‘liq hal etilmayotganligidir. Respublikamizda oxirgi yigirma-o‘ttiz yil ichida aholini keksayish darajasi oshib borishi kuzatildi, bunday holat esa kelajakda Pensiya jamg‘armasining to‘lov qobiliyatini pasayishi va uning xarajatlarga mablag‘ yetishmaslik holatiga olib kelishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta‘minotida hozirgi kunda pensiya jamg‘armasiga kelib tushayotgan pensiya badallarini hisobga olishni takomillashtirish bo‘yicha ayrim muammolar ham mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining mablag‘laridan foydalanishda ayollar va erkaklar ishtirokining farqlanishi, ko‘plab imtiyozli pensiyalarning hamon saqlanib qolinishi, mamlakatimizda pensiya ta‘minotiga oid qonunchilikni bir xil qo‘llash, bir xil tushunish sohasida qiyinchiliklar mavjudligi, nodavlat pensiya jamg‘armalarini shakllantirish, ularning faoliyat ko‘rsatish tartibini, davlat va jamiyat oldidagi javobgarligini, ushbu jamg‘armalarning ishtirokchilar bilan munosabatlarini aniqlashtirilgan qonunlarni ishlab chiqish zaruriyati pensiya tizimida tezda hal etilishi zarur bo‘lgan muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Pensiya ta‘minoti boshqaruviga oid muammolarning dolzarbligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishiga asos bo‘ldi.

¹ “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 15.01.2016 yil.-www..uza.uz- internet sayti ma‘lumotlari asosida

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Davlat pensiya ta'minoti tizimi bilan bog'liq byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Navoiy viloyati boshqarmasi faoliyati tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasidai pensiya ta'minoti tizimini boshqarish masalalari tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – O'zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta'minotini boshqarishni takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflarni ishlab chiqish hisoblanadi. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish zarur bo'ladi:

- davlat pensiya ta'minoti tizimi, uni boshqarishning zarurligi va ahamiyatini o'rganish;

- davlat pensiya ta'minotini boshqaruv organlari, ularning vazifalari, vakolatlari va faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish;

- davlat pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarining shakllanishi va uni boshqarish holatining tahlilini tahlil etish;

- davlat pensiya ta'minoti moliyaviy resurslaridan foydalanishni boshqarish holatini tahlil qilish;

- pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish orqali pensiya ta'minotini boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni tadqiq etish;

- O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish masalalarini tadqiq etish;

- davlat pensiya ta'minoti tizimini boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish yuzasidan takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishidagi xulosalar va takliflar davlat pensiya ta'minotini boshqarishni takomillashtirishga imkoniyat yaratadi. Bitiruv malakaviy ishi ma'lumotlaridan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'limlarining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi va tuzulishi. Ushbu bitiruv-malakaviy ishimiz o‘z ichiga kirish, 3 ta bob, uning asosiy mazmunini yorituvchi 6 ta savol, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati kabi tarkibiy qismlardan iborat. Ushbu bitiruv malakaviy ishi 85 betdan iborat bo‘lib, unda 5 ta jadval va 7 ta rasm o‘z aksini topgan.

Ishning kirish qismida bitiruv-malakaviy ishi mavzuning dolzarbligi, unig ob‘ekti va predmeti, ishning maqsadi va vazifalari, uning nazariy va amaliy ahamiyati o‘z ifodasini topgan.

Ishning birinchi bobida davlat pensiya ta‘minotini boshqaruv organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari o‘rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta‘minoti moliyaviy resurslarini boshqarishning hozirgi holati tahlili keltirilgan.

Ishning uchinchi bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat pensiya ta‘minotini boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Bitiruv-malakaviy ishining xulosa va takliflar qismida olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari yuzasidan shakllantirilgan xulosalar hamda ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalarning qisqacha mazmuni o‘z ifodasini topgan.

I BOB. DAVLAT PENSIYA TA'MINOTINI BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Davlat pensiya ta'minoti tizimi, uni boshqarishning zarurligi va ahamiyati

Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, fuqorolarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishga muxtoj tabaqalarini manzilli ijtimoiy himoya qilish taraqqiyotimizning muhim hususiyatlaridan biridir. Bugungi sharoitda pensiyalarga oid qonunchilikni takomillashtirish, inson huquqlariga oid xalqaro standartlarni keng joriy etish, davlat peniyalarini tayinlash va to'lash chog'ida ijtimoiy adolat tamoyillarini to'la qaror toptirish, ana shu maqsadlarda ajratilayotgan moliyaviy resurslardan samarali hamda maqsadli foydalanishga erishish amalga oshirilib kelinayotgan yangilanish va modernizatsiya qilish jarayonlarimizning muhim jihatlaridan sanaladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan huquqiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri-inson manfaatlarini oliy qadriyat sifatida har tomonlama ta'minlash va muhofaza etishdan iboratdir. Amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarni samaradorligini oshirish hamda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirishni taqazo qiladi.

Ma'lumki inson uchun birinchi navbatda, uning ehtiyojlar yig'indisini tashkil etgan hayotiy muhim manfaatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ehtiyojlarning qondirilishi esa har bir fuqaro, jamiyat va davlatning munosib hayot kechirishi va taraqqiyotini ta'minlovchi omil hisoblanadi.


Inson ushbu ehtiyojlarini mehnat qilish orqali qondirib, bu bilan o'z turmush farovonligini oshirib boradi. Shuning uchun bosh qonunimiz sanalmish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va

qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega"² ekanligi belgilab qo'yilgan.

Davlat mehnatga layoqatsiz barcha fuqarolarni ijtimoiy jamg'armalar mablag'lari hisobidan, pensiya va ijtimoiy nafaqalar orqali Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan huquqlarini kafolatlaydi. Pensiya ta'minoti tizimi fuqorolarning turmush darajasi o'sishini ta'minlash manbai hisoblanadi, pensiyalarni olish huquqiga esa mehnat qilish orqali erishiladi.

Pensiyaning mohiyatini "pensiya" so'zi ochib beradi. Pensiya so'zi lotin tilidagi "pension" so'zidan olingan bo'lib, "to'lov" ma'nosini anglatadi.³

"Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomda pensiya so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: "*pensiya*-uni olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yoqotganlik munosabati bilan beiladigan oylik pul to'lovi".⁴



1.1. Pensiya ta'minoti tizimining maqsadlari⁵

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston". 2008,9-bet.

³ Saidov M.X. Ijtimoiy himoya. Atamalar izoxli lug'ati. -T.: "A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti". 2004, 73-bet

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-dekabrda 252-son "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom

⁵ G.Qosimova, Z.Karimova. Budgetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. 2009-y.

Pensiya tizimi mamlakatimiz aholisini ijtimoiy himoyalash tizimining muhim qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi kam ta'minlangan fuqarolar va mehnatga layoqatsiz kishilar hayot darajasini oshirishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy xarakterga ega kompleks dastur talablarini ijro etishdan iborat. Shu bois Prezidentimiz tashabbusi bilan istiqlol yillarida aholini ijtimoiy himoyalashni yanada kuchaytirish, pensiya ta'minoti sifatini oshirish bo'yicha bosqichma-bosqich islohatlar olib borilmoqda. Natijada o'tgan qisqa davr ichida respublikamizda aholini ijtimoiy muhofaza qilish va kafolatlashning kuchli hamda ta'sirchan mexanizmi yaratildi. Bugungi kunda iqtisodiy xayotni pensiya tizimisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, har bir davlat o'z pensiya tizimiga ega. Davlat o'z yo'nalishi, turini va to'lov funksiyalarini belgilab olib pensiya jamg'armalari boshqariladi va tashkil etiladi. Pensiya tizimi kompleks tushuncha asosida tashkil topgan bo'lib, pensiya jamg'armalarining tashkiliy boshqaruvi munosabatlari orqali fuqarolarni moddiy tomondan pensiya bilan ta'minlash va to'lash, boshqarma va tashkilotlarning pensiya ta'minoti munosabatlari orqali yuzaga keladi. Pensiya tizimi davlat tomonidan tashkil etilgan barcha huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy, tashkiliy institutlar me'yorlari asosida fuqarolarni moddiy ta'minot ko'rinishidagi nafaqalar bilan maqsadli ta'minlash xisoblanadi. Pensiya tizimi huquqiy tushuncha bulib, buning asosida me'yoriy boshqaruv yig'indilari asosiy uch xil xarakterli jamoaviy munosabatlar guruxiga ajratiladi⁶:

- pensiya jamg'armasining tashkilot va boshqarma munosabatlari;
- pensiya jamg'armasining tashkiliy munosabatlari, bunda pensiya to'lovlarining to'lanishi va boshqa to'lovlar hisobiga shakllanadi;
- jamiyat a'zolarini pensiya va boshqa pensiya to'lovlari bilan moddiy ta'minlash munosabatlari.

Demak, davlat pensiya ta'minoti tizimi yuqorida aytib o'tilgan hollarda davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy ta'minot olishni ro'yobga chiqarish vositasidir. Bundan tashqari, har qanday davlatda shunday shaxslar toifasi doimo mavjudki,

⁶ Marc Whitehead "The social security disability puzzle" 2010 y. p.36

ular obyektiv sabablarga ko'ra (pensiya yoshi, sog'lig'i, ishsizlik darajasi kabi), ishlab chiqarishda ishtirok eta olmaydilar. Shu bois ularni ijtimoiy jihatdan himoyalashni davlat o'z zimmasiga oladi, mamlakatda yaratilgan Yalpi ichki mahsulotning bir qismi ular foydasiga qayta taqsimlanadi.

Pensiya ta'minotining zaruriyati mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida aholi uchun ijtimoiy qiyinchiliklarni yengillashtirish bilan bog'liq.

Pensiya tizimi oldida uchta muhim maqsad turadi:

Birinchidan, fuqorolarni keksalik chog'ida kambag'allikdan himoyalash;

Ikkinchidan, mehnat faoliyatining tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash;


Uchinchidan, bu daromaddan kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash tarzida foydalanish.

Xozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, davlatning pensiya tizimi bozor sharoitida ijtimoiy muvozanatni saqlab qoluvchi asosiy omil hisoblanadi. Pensiya tizimini har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va modeliga qarab tashkil etib, takomillashtirib bormoqda.

Pensiya tizimi aholini ijtimoiy himoyalash tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi o'z ichiga pensiya ta'minotidan tashqari, nogironlar va ota-onasi qaramog'ida bo'lmagan bolalarni ijtimoiy himoyalashni qamrab oladi. Jamiyatning pensiya tizimi pensiya ta'minoti uchun xizmat qiluvchi maxsus muassasalar, pensiyani amalga oshirish mexanizmi hamda shu sohadagi davlat siyosatini amalga oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy dastak va vositalarni qamrab oladi.

Pensiya tizimining pirovard vazifasi inson ehtiyojini hamda uning keksalik chog'ida himoyalashga talabini qondirishdir, ya'ni pensiya ta'minotini amalga oshirish, mehnat jarayonida insonning salomatligi va mehnat qobiliyatini

muhofazalash imkonini beradigan turkum tashkiliy-huquqiy, moliyaviy-tibbiy chora-tadbirlar yig'indisidir.




1.2-rasm. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi⁷

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi ham shundaki, bu siyosat fuqorolarning pensiya ta'minoti tizimining doimiy takomillashtirib borilishini taqazo etmoqda. Bu borada so'nggi yillarda qabul qilingan qonunchilik xujjatlari, farmonlar va qarorlar aholining keksa yoshdagi fuqarolar hamda ijtimoiy muhofazaga muxtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning turmush faoliyatini oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.


Jahon amaliyoti tajribalaridan shu ma'lumki, pensiya ta'minoti tizimi uchta pensiya ta'minoti tizimiga ajratilgan. Buni 1.3-rasm orqali ko'rish mumkin.

⁷ Amaldagi qonunchilikga asosan talaba tomonidan mustaqil tuzildi



1.3-rasm. Pensiya ta'minoti tizimi⁸

Pensiya ta'minoti tizimi o'zining vazifalaridan kelib chiqqan holda to'rtta funktsiyani bajaradi:



1.4-rasm. Pensiya ta'minoti tizimining funktsiyalari⁹

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti davlatlarida pensionerlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish vazifasi an'anaviy ko'rinishda hal qilinadi. Fuqaroni pensiya huquqlarining aksariyat qismi u tomonidan mustaqil ravishda ishlab topiladi. Agar qonun asosida o'rnatilgan pensiya minimumini ta'minlash uchun mablag' yetishmasa davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. Taraqqiy etgan

⁸ Marc Whitehead "The social security disability puzzle" 2010 y. p.45

⁹ Talaba tomonidan mustaqil tayyorlandi

mamlakatlarning amaliyoti ko'rsatishicha, sug'urta mezoni sifatida ishlovchiga qarilikda aholi turmush darajasini saqlash imkonini beradigan yo'qotilgan ish haqini qoplash darajasi qabul qilingan. Shu maqsadda u yoki bu ko'rinishdagi, uni iqtisodiy va ijtimoiy mazmunini o'zgartirmaydigan qoplash ko'effitsienti qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkichning o'zgarishi har bir mamlakatning tarixan shakllangan xususiyatlari va iqtisodiy imkoniyatlari asosida sodir bo'ladi. Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyasiga ko'ra qoplash ko'effitsientining minimal miqdori yo'qotilgan ish haqini 40% ga teng bo'lishi kerak. Har bir pensionerga 5-6 ishlovchi to'g'ri kelishi va to'lovlar pensiya tizimidagi «avlodlar birdamligi» tamoyiliga asoslangan bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda taraqqiy etgan mamlakatlar jamg'ariladigan pensiya tizimi va korporativ pensiya fondlariga qo'shimcha to'lovlarni joriy etish hisobidan ishlovchilarni mehnat daromadlarini qoplash ko'effitsienti miqdorini keskin oshirdilar.

Pensiya ta'minot sohasidagi qonunchilik tizimi isloh etilar ekan, fuqarolarni pensiyalar bilan ta'minlanishida ularning jamiyat boyliklari ko'payishiga qo'shgan shaxsiy hissasini hisobga olish, mehnat staji miqdori va sifati, mehnat sharoitlarining zararli va noqulayligi to'liq hisobga olinishi, shu bilan birga texnika va texnologiyalarda yuz bergan tub o'zgarishlar tufayli zararsiz hamda mehnat sharoitlari qulay va xavfsiz bo'lib qolgan joylarda mehnat qilayotgan shaxslarning eski norma va qoidalarga ko'ra asossiz pensiya imtiyozlari olishlariga yo'l qo'yilmasligi zarur bo'lib, bu ijtimoiy adolatni ta'minlash, tadbirkorlar huquqlarini himoyalashning muhim shartlaridan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan hozirgi qonunchiligimizda pensiya ta'minoti uchun ikki asosiy talab qo'yilgan:

1. Fuqarolarga pensiya ta'minoti huquqini beruvchi shartning mavjudligi (bu pensiya yoshiga to'lish, turli sabablarga ko'ra nogiron bo'lib qolish, boquvchisini yo'qotish);
2. Pensiya olishga ariza bergan fuqarolar uchun zarur ish stajining mavjud bo'lishi.

Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi.

Qonun bilan davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilanadi: yoshga doir pensiya; nogironlik pensiyasi; boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi. Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash davlatlararo bitimlar (shartnomalar) asosida amalga oshiriladi. Ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emas, ularning ijtimoiy ta'minot tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

“Bugungi kunda mamlakatimizda 60 yoshdan oshganlar soni 2 million 873 mingdan ko'proq kishini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida xalqimizning o'rtacha yoshi 1990 yildagi 67 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar o'rtasida esa 75,8 yoshga etdi. Ayni paytda yurtimizda 225 ming nafar 80 yoshdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar – 100 yoshdan oshgan tabarruk qariyalar yashamoqda. Ular orasida 3 ming 109 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, 69 ming 994 nafar front ortida mehnat qilgan insonlar bor”¹⁰. Shu munosabat bilan “keksalarga g'amxo'rlik ko'rsatish va e'tiborni kuchaytirish, ularning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, pensiya ta'minoti va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, yoshi ulug' insonlarga davlat xizmatlari ko'rsatishning eng qulay tizimini shakllantirish”¹¹ bilan bog'liq “Keksalarni e'zozlash yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalar mamlakatimiz pensiya ta'minoti tizimi zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklamoqda.

Fuqarolarning keksaygandagi hayot faoliyati daromad manbalari va ularning barqarorligi kabi jiddiy muammolar bilan bog'liq bo'ladi. Kishilik taraqqiyoti davomida insonlar keksaygan sari, to'laqonli mehnat qilish qobiliyatini yo'qota borgan sari kambag'allikka duchor bo'la boshlagan, farzandlarining qo'liga tobora

¹⁰ Prezident I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi.// 06.12.2014.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 18 fevraldagi “Keksalarni e'zozlash yili” Davlat dasturi to'g'risida”gi PQ-2302-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 8-son, 91-modda.

ko'proq qaram bo'la boshlagan. Farzandlarning o'zi ham o'z tirikchiligini o'tkazish, hayot uchun kurashish yo'lida ish qidirib bir joydan boshqa joyga sarson bo'lishga majbur bo'lganda, qariyalarining ahvoli undan-da yomonlashgan. Agrar ishlab chiqarishga asoslangan jamiyatlarda keksaygan jamiyat a'zolarining ahvoli hozirgi kunlarda ham ayanchliligicha qolmoqda.

Agar yuz yil oldingi tarixga nazar tashlasak, xatto sanoati rivojlangan mamlakatlarda ham mehnatkashlarning kamdan-kam qismi mehnat faoliyatini to'xtatgandan keyin ishonchli daromadga ega bo'lgan. Ularning ko'pchiligi kambag'allikka duchor bo'lishdan qo'rqib, imkoni boricha uzoqroq ishlab qolishga harakat qilgan. Nogiron bo'lib qolish yoki boquvchisini yo'qotish kabi hayotiy hodisalar esa ularning kambag'allik yoki birovga qaramlikka mahkum bo'lish ehtimolini yanada kuchaytirgan. Shu sababli eng ommaviy va moliyaviy oqibatlariga ko'ra eng og'ir ijtimoiy havf-xatarining - qarilik, nogironlik, boquvchisini yo'qotish havf-xatarining mavjudligi pensiya dasturlarining shakllanishiga olib keldi.

Natijada XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida ko'pchilik sanoati rivojlangan mamlakatlarda milliy pensiya tizimlarining shakllanish jarayoni kishilik taraqqiyoti tarixiga muhim bosqich bo'lib kirdi. Shu davrdan boshlab “qarilik – bu kambag'allik, nochorlik” degan tushunchalar birmuncha eskirdi. Bundan tashqari, ko'pchilik mamlakatlarda fuqarolar mehnat faoliyatini tugatgandan keyin ham normal hayot faoliyatini kechirish uchun etarlicha moddiy ta'minlanish imkonini beradigan pensiyalarga ega bo'ldilar. Ularning moddiy ta'minot darajasi xatto ayrim ishlovchi, lekin ko'p bolali yosh mehnatkashlardan ham ko'ra yuqoriroq bo'la boshladi.

“*Pensiya*” so'zining o'zi lotincha “pension” so'zidan olingan bo'lib, mehnat qobiliyatini, va demak, ish haqi ko'rinishidagi daromad manbaini yo'qotganda, qarilikda, nogironlikda yoki boquvchisini yo'qotganda moddiy ta'minlash uchun muntazam to'lanishi mo'ljallangan pullik to'lov ma'nosini anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda, *pensiya tizimi deganda* mamlakat fuqarolarini ma'lum yoshga etganda, nogironlikda, boquvchisini yo'qotganda moddiy jihatdan ta'minlash bilan

bog‘liq bo‘lgan huquqiy, moliyaviy, tashkiliy munosabatlar, shuningdek, maxsus ixtisoslashgan tashkiliy tuzilmalar yig‘indisi tushuniladi.

Turli mamlakatlar milliy pensiya tizimlarining shakllanishida quyidagi ikki yondoshuv asos bo‘lib xizmat qilgan: birinchi yondoshuvga ko‘ra, pensiya tizimiga tortilgan barcha fuqarolar uchun pensiya daromadining minimal hajmi kafolatlansa, ikkinchi yondoshuv bo‘yicha pensiya - ish haqining zaxiralanuvchi qismi bo‘lib, sug‘urtalangan xodimga uning pensiyaga chiqish oldidagi daromadiga monand moddiy ta‘minotga ega bo‘lishni kafolatlaydi.

1.2 Davlat pensiya ta‘minotini boshqaruv organlari, ularning vazifalari, vakolatlari va faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari


O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining yuqori boshqaruv organi Jamg‘armaning Kuzatuv kengashidir.

Davlat pensiya ta‘minoti tizimi doirasida moliyaviy resurslarning taqsimlanish va qayta taqsimlanish jarayoni har doim ma‘lum maqsadlarga erishishga qaratilgan, bo‘lib u o‘ziga xos tarzda tartibga solish va rag‘batlantirish tamoyillari asosida boshqarib boriladi.

Ma‘lumki, har qanday tizimida boshqaruv bo‘lgani kabi, pensiya ta‘minotini boshqarishda ham boshqarish obyektlari va subyektlari mavjud bo‘ladi.


Davlat pensiya ta‘minotini boshqarish obyektlari bo‘lib turli moliyaviy munosabatlar hisoblanadi. Masalan, budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar va boshqa pul jamg‘armalarini tashkil qilish va ishlatish bilan bog‘liq munosabatlar boshqarish obyektlaridir. Bu moliyaviy munosabatlarni boshqarishga xizmat

qiluvchi tashkiliy tuzilmalar (moliya organlari, soliq idoralari, korxonalardagi moliyaviy xizmatlar va bo‘limlar) esa moliyani boshqarish subyektlaridir.



1.2-rasm. Davlat pensiya ta'minotini boshqarish¹²

Davlat pensiya ta'minotini boshqarish quyidagilarni o'z ichiga oladi (1.2-rasm). Moliyaviy munosabatlarning har bir sohasi va har bir bo'g'inida boshqarish subyektlari bu munosabatlarga ta'sir etishning o'ziga xos maxsus usullaridan foydalanadilar. Shu bilan birga, bu usullar ma'lum umumiylikka ega bo'lgan funksional elementlardan iborat, bular: rejalashtirish, operativ boshqarish va nazorat (1.3-rasm).



1.3-rasm. Davlat pensiya ta'minotini boshqarish elementlari¹³

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda PF-4161-son Farmoniga muvofiq, 2010 yil 1 yanvardan O'zbekiston Respublikasi

¹² Ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida talaba tomonidan mustaqil tayyorlandi

¹³ O'sha erda

Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlarini va boshqa to'lovlarni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to'lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo'yicha asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi.

Mazkur jamg'arma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.



1.4-rasm. Davlat pensiya ta'minoti tizimini boshqarish organlari¹⁴

¹⁴ Talaba tomonidan mustaqil tuzildi

Shuningdek budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi o'z ishlarini davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi. Ushbu jamg'arma quyi tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;
- Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari;
- Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi;
- bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari kiradi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari ta'minoti respublika budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Jamg'arma hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tushirilgan muhrga ega.

Pensiya ta'minotining ijtimoiy nuqtai nazardan muhimligi uning hozirgi kunda respublikamiz fuqarolarining iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qarorida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida nizomda¹⁵ jamg'armaning asosiy vazifalari va funktsiyalari quyidagi tartibda belgilab berilgan:

- Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash;

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qaroriga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida nizomini, 1-bo'limi umumiy qoidalari "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2010 yil, 8-son, 62-modda.

- pensiyalar va boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil etish, ular bo'yicha hisob va hisobotni yuritish;
- tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o'tkazish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iy maqsadli foydalanilishini ta'minlash;
- mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish;
- tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi *funksiyalarni* amalga oshiradi:

a) *Jamg'armaning daromadlari bo'yicha:*

- Jamg'arma mablag'lari bo'yicha majburiy to'lovlar, badallardan mablag'larni hamda boshqa to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi hisob raqamiga jamlaydi hamda pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarga xarajatlarni moliyalashtirishni ta'minlaydi;

- har yili manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Jamg'arma daromadlari tushumlar prognozini ishlab chiqadi;

- davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining barqarorligini ta'minlash va uni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining o'rtacha va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlaydi;

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan regress da'volar bo'yicha belgilangan tartibda undirib oladi;

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risi"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi "b" — "j"-bandlariga muvofiq tayinlangan

imtiyozli pensiyalarni to'lashga sarflangan mablag'larni yuridik shaxslardan regress da'volar bo'yicha belgilangan tartibda undirib oladi;

- badallar va boshqa to'lovlar tushishi hisobini olib boradi, shuningdek yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning hamda dehqon xo'jaliklari a'zolarining mehnat daftarchalarini belgilangan tartibda yuritadi va saqlaydi;

b) *pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash hamda qayta hisoblab chiqish bo'yicha:*

- pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va qayta hisoblab chiqish uchun zarur bo'lgan taqdimnomalar, arizalar va boshqa hujjatlarni qabul qiladi, ularni qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiradi;

- pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni belgilangan tartibda tayyorlaydi, ko'rib chiqadi va tekshiradi;

- Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlarida pensiyalar tayinlash bo'yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etadi;

- zarur tarzda rasmiylashtirgan hujjatlarga muvofiq va pensiyalar tayinlash bo'yicha komissiyalar qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalarni tayinlaydi va ularni qayta hisoblab chiqadi;

- pensionerlarning pensiya ishlarini va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning ishlarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi, pensionerlarga pensiya guvoohnomalari beradi;

- pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar tayinlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

- tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklari a'zolari tomonidan taqdim etilgan pensiyalar, Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar olish huquqini beradigan hujjatlarning ishonchliligini tekshiradi;

v) pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarga xarajatlarni amalga oshirish bo'yicha:

- pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni hisoblab chiqish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradi, ishlamaydigan pensionerlarga aloqa tashkilotlari va banklar orqali, ishlaydigan pensionerlarga esa — tashkilotlar orqali pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'lash yuzasidan topshiriqlarni rasmiylashtiradi va beradi;

- aloqa tashkilotlari, banklar tomonidan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarning o'z vaqtida va to'g'ri etkazib berilishi hamda to'lanishi yuzasidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshiradi;

- yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarga, shuningdek dehqon xo'jaliklari a'zolariga — ular tomonidan ijtimoiy sug'urta bo'yicha badallar to'langan taqdirda, chaqaloq tug'ilganda beriladigan nafaqalar hamda dafn marosimi nafaqalarini hisoblaydi va to'laydi;

- tashkilotlarning ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lov, Chernobil halokati oqibatida zarar ko'rgan fuqarolarga kompensatsiya to'lovlarini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlarga xarajatlarini moliyalashtiradi;

g) fuqarolarning pensiya ta'minoti bilan bog'liq boshqa masalalar bo'yicha:

- ommaviy axborot vositalari yordamida respublika aholisini fuqarolarning pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha xabardor qiladi;

- belgilangan tartibda tayinlangan shaxsiy pensiyalar to'lanishini tashkil etadi;

- imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlar ro'yxatlarini qo'llash masalalari bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, imtiyozli pensiyalarni takomillashtirish va tartibga solish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini tashkil etadi;

- jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqadi, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi;

- “O‘zbekiston pochta” ochiq aksiyadorlik jamiyati va O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankining bo‘linmalarida pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari hamda boshqa to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi monitoringini olib boradi va tekshiradi;

- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi, fuqarolarning pensiya ta‘minoti masalalari bo‘yicha zamonaviy nazariy ishlanmalarni va xorijiy tajribani o‘rganadi;

- pensiya ta‘minoti masalalari bo‘yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;

- Jamg‘arma vakolatiga tegishli bo‘lgan masalalar bo‘yicha qonun hujjatlarini qo‘llash amaliyotini umumlashtiradi;

- pensiya ta‘minoti masalalari va Jamg‘armaning vakolatiga tegishli bo‘lgan boshqa masalalar bo‘yicha xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshiradi;


d) Jamg‘armaning vakolatiga kiradigan boshqa masalalar bo‘yicha:

- Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, bosh, tumanlararo, tuman, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari faoliyatiga rahbarlik qiladi;

- Jamg‘arma vakolatiga tegishli bo‘lgan masalalar bo‘yicha e‘tiroz-da‘vo ishlari olib borilishini tashkil etadi va amalga oshiradi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armaning Kuzatuv kengashi Jamg‘armani boshqarishning yuqori organi hisoblanadi, uning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Jamg‘arma Kuzatuv kengashining majlislari yil choragida kamida bir marta o‘tkaziladi. Jamg‘armaning ijro etuvchi apparati Kuzatuv kengashining ishchi organi hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha Pensiya jamg'armasining 14 ta hududiy boshqarmalari, 196 ta tuman (shahar) bo'limlari, 108 ta hududiy va ixtisoslashtirilgan TMEK lar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Respublikamiz bo'yicha jami 2 mln. 936 ming nafardan ortiq pensiya va nafaqa oluvchilar istiqomat qilayotgan bo'lib, shundan, 2 mln. 716 ming nafari yoshga doir, 430 ming nafari nogironlik va 184 ming nafari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchilari hamda 220 ming nafardan ortiq ijtimoiy nafaqa oluvchilar tashkil etadi.



1.5-rasm. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi¹⁶

Jamg'arma hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, hamda tegishli muhr va shtamlarga ega. Shuningdek, qaror bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqaruv kengashi va ularning tarkibi ham belgilangan.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda PQ -1252-sonli "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori I-ilovasidan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda
«Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari
to‘g‘risida»gi PF-4161-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda pensiya ta’minoti
tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat
samaradorligini oshirish maqsadida 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab
O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya
jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasi, Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi apparatining
tuzilmasi, Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmalarining va tuman (shahar)
bo‘limlarining namunaviy tuzilmalari o‘zgartirildi.

Jamg‘armaning Kuzatuv kengashi vakolatlariga quyidagilar tegishli
bo‘ladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda
Jamg‘armaning daromadlari va xarajatlari prognoz parametrlarini, shuningdek
Jamg‘arma xarajatlarining har yilgi smetasini ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

- Jamg‘arma ijro etuvchi apparati, hududiy boshqarmalarining amalga
oshiriladigan ishlar to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitish va tasdiqlash;
vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, Respublika tibbiy-
ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari va boshqa
tashkilotlar mas’ul xodimlarining Jamg‘arma vakolatiga tegishli bo‘lgan masalalar
bo‘yicha hisobotlarini eshitish;

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Jamg‘armaga
majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida
to‘lanishini ta’minlash to‘g‘risidagi axborotini eshitish;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Jamg‘armaning ijro
etuvchi direktorini, uning o‘rinbosarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod
qilish to‘g‘risida taqdimnoma kiritish;

- Jamg‘armaning hududiy boshqarmalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomni
tasdiqlash;

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Pensiylar tayinlash bo‘yicha tuman (shahar) bo‘limi komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash;

- Jamg‘armaning ijro etuvchi apparati faoliyatini, ayniqsa Jamg‘arma daromadlarini shakllantirish, uni o‘z vaqtida moliyalashtirish va undan maqsadli foydalanish yuzasidan nazorat qilish;

- topshiriqlar, vedomostlar va pochta o‘tkazmalari bo‘yicha to‘lanadigan pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlar jo‘natilishi va etkazib berilishi bo‘yicha xizmatlarga haq to‘lash miqdorlarini tasdiqlash;

- Jamg‘arma faoliyati hamda fuqarolarning ijtimoiy ta‘minotga va davlat ijtimoiy sug‘urtasiga bo‘lgan davlat tomonidan kafolatlangan huquqlari amalga oshirilishi bilan bog‘liq boshqa funktsiyalarni amalga oshirish.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi apparati tuzilmasi, uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlarining namunaviy tuzilmalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari bilan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg‘armasi Ijro etuvchi Direktsiyasi:

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg‘armasi byudjetlarining loyihalarini tayyorlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga kiritadi;

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg‘armasining mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg‘armasining byudjetlari daromadlari prognozini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga yilning har choragida etkazadi;

- Byudjet Kodeksining 149-moddasida nazarda tutilgan tartibda davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg'armasiga majburiy to'lovlar va boshqa tushumlar to'liq hamda o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg'armasi byudjetining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg'armasi byudjetini ijro etish jarayonida tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg'armasining xarajatlari maqbullashtirilishini amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg'armasining Yagona g'azna hisobvarag'i va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag'larini boshqaradi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg'armasi byudjetlari ijrosining byudjet hisobini yuritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg'armasi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari balansliligiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o'tkazadi.

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari jamg'armasini taqsimlovchi organlar qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining qo'shimcha manbalaridan foydalanish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining faoliyat yo'nalishi bilan bog'liq xarajatlar uchun amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining xarajatlariga davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tasdiqlangan parametrlariga nisbatan ularning xarajatlarini 10 va undan ortiq foizga ko'paytirishni yoki kamaytirishni nazarda tutadigan o'zgartirishlar kiritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining xarajatlariga ularning tasdiqlangan parametrlariga nisbatan 10 foizdan kam ko'paytirish yoki kamaytirishni nazarda tutadigan o'zgartirishlar kiritish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi taqsimlovchi organlarining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining xarajatlarini ularning tasdiqlangan parametrlariga nisbatan ko'paytirish ularni qoplash manbalari mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining xarajatlariga ularning tasdiqlangan umumiy parametrlarini ko'paytirmasdan yoki kamaytirmasdan o'zgartirishlar kiritish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini taqsimlovchi organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishuvga ko'ra amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini taqsimlovchi organlar har oyda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tahliliy maqsadlar uchun davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarning shakllari, taqdim etish tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini taqsimlovchi organlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelegacha taqdim etadi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga tashqi audit o'tkazish va baholash uchun hisobot yilidan keyingi yilning 5 aprelegacha yuboradi.

- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotga doir xulosani hisobot yilidan keyingi yilning 10 mayidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuboradi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining

xulosasi bilan birga hisobot yilidan keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli hisobot davri uchun taqdim etilgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraktsiyalari, deputatlar guruhleri va qo'mitalarida muhokama qilish asosida ko'rib chiqadi. Tegishli hisobot davri uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraktsiyalari, deputatlar guruhleri va qo'mitalarida ko'rib chiqilgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib chiqiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan tasdiqlangandan so'ng hisobot yili uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining ijrosi to'g'risidagi axborot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi quyidagilarni amalga oshiradi:

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, byudjet-soliq va pul-kredit parametrlarini shakllantirish jarayonlarini, ularning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligiga rioya etilishini tizimli o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlarini shakllantirish va mablag'lari sarflanishini umumiy, moddalar bo'yicha, tarmoqlar hamda hududlar kesimida nazorat qilish va tekshirish;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi dasturlari amalga oshirilishining to'liqligi va samaradorligini baholash;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlaridagi mablag'larining qonuniy shakllantirilganligini, maqsadli hamda samarali sarflanganligini nazorat qilish va tekshirish;

- davlat aktivlari shakllantirilishini, ulardan samarali va maqsadli foydalanilishini tekshirish;

- daromad keltiruvchi tarmoqlar korxonalarini faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetiga qo'shimcha tushumlar zaxiralarini aniqlashga yo'naltirilgan tarzda tahlil va nazorat qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan nazorat qilishga doir vazifalar moliya organlari, shu jumladan, g'aznachilik bo'linmalari tomonidan bajarilishi samaradorligini tahlil qilish va boshqalar.

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini taqsimlovchi organlar tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetlarining loyihalari tushumlar manbalari bo'yicha daromadlar va yo'nalishlar bo'yicha xarajatlar prognozidan tarkib topadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetlarining loyihalarini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari navbatdagi yil uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetini hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasi O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini oluvchilar tomonidan ularning bir yil uchun tasdiqlangan parametrlari doirasida oyma-oy bo'lingan holda tuziladi va tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasining va unga doir ilovalarning shakllari, shuningdek smetani tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini taqsimlovchi organlar tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalarini tasdiqlash joriy yilning 10 martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'lari bo'yicha tasdiqlangan xarajatlar smetalarini ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini taqsimlovchi organlar tomonidan joriy yilning 1 apreldan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatini boshqarishda:

- byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya qilinishi;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining xarajatlari ijrosi;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining mablag'lari hisobidan to'lovlarni amalga oshirishning navbatliligi, muddatlariga rioya etilishi va to'liqligi;
- davlat investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun markazlashtirilgan manbalardan ajratiladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi;
- pensiyalar va nafaqalar to'g'ri tayinlanishi, hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi;

- tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarining faoliyati;
- byudjet ssudalari va kredit liniyalaridan maqsadli foydalanilishi;
- O'zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan) maqsadli foydalanilishi;
- insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish mablag'laridan maqsadli foydalanilishi va boshqalar.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATINING TAHLILI

2.1. Davlat pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarining shakllanishi va uni boshqarish holatining tahlili

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari:

yagona ijtimoiy to'lovning belgilangan miqdordagi tushumlari;

fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to'lash xarajatlarining o'rnini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o'rni qoplanadigan mablag'lar tushumining bir qismi, O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari, majburiy to'lovlar, badallar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun hisoblangan jarimalar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararining o'rnini qoplash uchun to'lanadigan nazarda tutilgan mablag'lar, vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni

joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetining qo'shimcha manbalari quyidagilardir:

- yil boshidagi holatga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi mablag'larning yil boshiga tasdiqlangan mablag'lar miqdoridan ortiq bo'lgan qoldiqlari;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetlarini ijro etish jarayonida joriy yil daromadlari prognozining birinchi - uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo'yicha, ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan tartibda aniqlanadigan oshirib bajarilishi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetlarini ijro etish jarayonida ularning xarajatlari iqtisod qilinishi natijasida bo'shab qolgan mablag'lar.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

- korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning sug'urta badallari;

- fuqarolarning majburiy sug'urta badallari;

- dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy ravishda to'laydigan sug'urta badallari;

- korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning belgilangan tartibda ajratiladigan majburiy ajratmalari;

- “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga pensiya to'lash

xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'lar;

–“Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq, muddatidan oldin tayinlangan pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasidan o'tkaziladigan mablag'lar;

–“Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag'lari;

–hisoblangan jarimalar summalari (qonun hujjatlariga muvofiq soliq organlarini rivojlantirish Jamg'armasiga undiriladigan summalardan tashqari), sug'urta badallari va ajratmalarining o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalari;

–yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari va qonunchilik bilan ta'qiqlanmagan boshqa daromadlar.

Yuqorida nomi keltirilgan Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarining miqdori to'lovchilarga soliq organlari tomonidan etkaziladi va Pensiya fondiga to'lanadigan majburiy to'lovlar soliqlar va yig'imlarga tenglashtiriladi. Ish haqi fondidan ajratmalar va sug'urta badallari bo'yicha hisobotlar har chorakda soliq inspektsiyasiga topshiriladi.

2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ya'ni Davlat Pensiya jamg'armasining daromadlari tizimida asosiy tushum ish haqi fondiga nisbatan ajratiladigan yagona ijtimoiy to'lovning (24.8%) hissasiga to'g'ri kelib, yillar davomida uning jami daromaddagi tutgan ulushi pasayish xususiyatiga egadir. Aksincha fuqarolarning ish haqlari hisobidan ajratiladigan yagona ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma (7.5%) hissasi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi aholining ish bilan bandligining oshish sur'atlari va o'tgan yillarga nisbatan ajratma stavkalarining oshishi hisoblanadi.

2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ya'ni Davlat Pensiya jamg'armasining daromadlari tizimida asosiy tushum ish haqi fondiga nisbatan

2.1-jadval

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari ijrosi¹⁷

| Ko'rsatkichlar | 2012 yil | | 2013 yil | | 2014 yil | | 2015 yil | | 2016 yil (prognoz) | |
|---|-------------|------------------------------------|-------------|-----------------------------------|-------------|-----------------------------------|-------------|------------------------------------|--------------------|------------------------------------|
| | Mrd. so'mda | Jami daromad larga nisbatan foizda | Mrd. so'mda | Jami daromadlarga nisbatan foizda | Mrd. so'mda | Jami daromadlarga nisbatan foizda | Mrd. so'mda | Jami daromad larga nisbatan foizda | Mrd. so'mda | Jami daromad larga nisbatan foizda |
| Jami daromadlar | 8065.4 | 100.0 | 10302.1 | 100.0 | 13013.7 | 100.0 | 16557.0 | 100.0 | 18113.3 | 100.0 |
| Yil boshida kutilayotgan qoldiq | 280.1 | 3.5 | 602.2 | 5.8 | 1067.3 | 8.2 | 2592.0 | 15.6 | 2568.3 | 14.2 |
| Daromadlar | 7785.3 | 96.5 | 9699.9 | 94.2 | 11946.4 | 91.8 | 13965.0 | 84.3 | 15545.0 | 85.8 |
| Shu jumladan: | | | | | | | | | | |
| Mexnat xaqi fondiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar | 4799.2 | 59.5 | 5907.4 | 57.3 | 7299.5 | 56.1 | 8324.2 | 59.6 | 9474.0 | 52.3 |
| Fuqarolarning ish haqi fondidan majburiy sug'urta badali | 1110.2 | 13.8 | 1482.7 | 14.4 | 1877.2 | 14.4 | 2463.8 | 17.6 | 3235.0 | 17.9 |
| Tovar (xizmat, ish) larning sotish hajmidan majburiy ajratmalar | 1401.5 | 17.4 | 1591.3 | 15.4 | 1933.0 | 14.9 | 2063.8 | 14.7 | 1527.0 | 8.4 |
| Soliqsiz tushumlar | - | - | - | - | - | - | - | - | 18.0 | 0.1 |
| Boshqa daromadlar | 474.4 | 5.9 | 718.5 | 7.0 | 836.7 | 6.4 | 1113.1 | 8.0 | 1291.0 | 7.1 |

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabr PQ-1675-sonli, 2012 yil 25 dekabr PQ-1887-sonli, 2013 yil 25 dekabrda PQ-2099-sonli, 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-sonli, 2015 yil 22 dekabrda PQ-2455-sonli Qarorlari asosida tuzildi.

ajratiladigan yagona ijtimoiy to'lovning (24.8%) hissasiga to'g'ri kelib, yillar davomida uning jami daromaddagi tutgan ulushi pasayish xususiyatiga egadir. Aksincha fuqarolarning ish haqlari hisobidan ajratiladigan yagona ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma (7.5%) hissasi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi aholining ish bilan bandligining oshish sur'atlari va o'tgan yillarga nisbatan ajratma stavkalarining oshishi hisoblanadi.

2.2-jadval

2005-2016 yillarda yagona ijtimoiy to'lov va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallari stavkasi¹⁸.

(foiz hisobida)

| Ko'rsatgichlar nomi | Yillar | | | | | | | | | | |
|--|--------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------------------------|
| | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 | 2009 | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015-2016 |
| Yagona ijtimoiy to'lov | 31 | 25 | 24 | 24 | 24 | 25 | 25 | 25 | 25 | 25 | 25 (15) |
| Shu jumladan Pensiya jamg'armasiga | 30 | 24.2 | 23.5 | 23.5 | 23.6 | 24.8 | 24.8 | 24.8 | 24.8 | 24.8 | 24.8 (14.8) |
| Majburiy sug'urta badali | 2.5 | 2.5 | 2.5 | 2.5 | 3.5 | 4 | 4.5 | 5.5 | 6 | 6.5 | 7 (7.5 ¹⁹) |
| Sotilgan maxsulotdan pensiya jamg'armasiga ajratma | 0.7 | 0.7 | 0.7 | 1 | 1 | 1.5 | 1.5 | 1.6 | 1.6 | 1.6 | 1.6 |

Hozirgi kunda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining asosiy daromad manbai bo'lib, ish beruvchilarning umumiy ish haqi fondidan hisoblab beradigan yagona ijtimoiy to'lov hisoblanadi. Quyida keltirilgan jadvalda ham aynan yagona ijtimoiy to'lov stavkasining amaldagi holati tahlili keltirilgan. Keltirilgan 2.2-

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tuzildi.

¹⁹ 2016 yil uchun majburiy ajratma stavkasi

jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki 2005 yilda yagona ijtimoiy to'lov tarkibida pensiya jamg'armasiga ajratmalar 30% ni va majburiy sug'urta badali 2,5% ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2015 yilga kelib yagona ijtimoiy to'lov tarkibida pensiya jamg'armasiga ish beruvchilar tomonidan 24,8% ni ishlovchilar tomonidan majburiy sug'urta badallari salmog'i esa 7% ni tashkil etmoqda. Yana bir o'zgarish, 2015 yilda mikrofirma va kichik korxonalar hamda fermer xo'jaliklari uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25 foizdan 15 foizga tushurildi. Buning 14.8 foizi ham Pensiya jamg'armasiga borib tushadi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar natijasida pensiya tizimi sohasida ham bir muncha ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Qonunchiligimizga bir qancha o'zgarishlar amalga oshirildi va pensiya jamg'armasi daromadlarining shakllanish manbalari aniq va ravshan qilib qo'yildi. Natijada, 2011 yildan boshlab Pensiya jamg'armasi profitsit bilan ijro qilina boshlandi. Daromad manbalari tarkibida korxonalar va tashkilotlarning ish haqi jamg'armasidan to'laydigan ajratmasi eng yuqori ulushga ega bo'lishi pensiya jamg'armasi daromad manbalarining oshishiga sabab bo'lmoqda. Bu ko'rsatkich, yuqoridagi tahlil ma'lumotlariga asosan yildan-yilga jami daromad tarkibidagi ulushi kamayib bormoqda. Shu sababli, mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikni, ya'ni kasanachilikni, duradgorchilikni va boshqa kichik biznesga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Daromad manbalarini tarkibida ishchilar ish haqisidan ajratmaning foiz stavkasi yildan-yilga o'smoqda, ya'ni bu ko'rsatkich 2008 yilda 2,5 foizni, 2015 yilda esa bu ko'rsatkich 7,0 foizni, 2016 yilda 7,5 foizni tashkil qilmoqda. O'rtacha oylik ish haqining ham yildan-yilga oshishi ham daromad manbalarining oshishiga sabab bo'lmoqda. Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirishda yuz berayotgan muammolarni bartaraf etish hamda daromadlarining o'z vaqtida korxonalar va tashkilotlar tomonidan o'z vaqtida to'lanmayotganligini bartaraf etish yo'nalishlarini aniqlash kerak. Bunga bir necha omillar sabab bo'ldi va yanada pensiya tizimi faoliyatini takomillashtirish maqsadida 2010 yildan Pensiya jamg'armasi Moliya vazirligi

huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi o'tkazildi va ijrosi G'aznachilik organlar orqali amalga oshirila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini mablag' bilan ta'minlashning bir necha manbalari mavjud:

1. Pensiya jamg'armasi mablag'lari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqalar to'lash, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan majburiy to'lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni jamlaydi. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari quyidagilar hisobidan shakllantiriladi:

- yagona ijtimoiy to'lovning belgilangan miqdordagi tushumlari;
- fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- boshqa daromadlar. Boshqa daromadlarga mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to'lash xarajatlarining o'rnini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o'rni qoplanadigan mablag'lar tushumining bir qismi, O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari, majburiy to'lovlar, badallar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun hisoblangan jarimalar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararining o'rnini qoplash uchun to'lanadigan nazarda tutilgan

mablag‘lar, vaqtinchalik bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

2. Davlat budjeti mablag‘lari. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonunining 5-modda bilan belgilangan harbiy xizmatchilarning, ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarining, sudyalarning va prokuratura organlari darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo‘lgan xodimlarining pensiya ta‘minoti shartlari, normalari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Bu xarajatlar “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi pensionerlariga pensiyalar to‘lash bo‘yicha vaqtincha tartib (Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 22 dekabrda 857-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan)ga ko‘ra, bu toifadagi fuqarolarga pensiyalar va bir martalik nafaqalarni to‘lash Ichki ishlar organlari tomonidan davlat budjetining respublika budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

3. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti orqali jamlanadigan mablag‘lar. “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasiga asosan, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari Xalq bankida shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag‘larni jamlash yo‘li bilan shakllantiriladi.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag‘larni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

- jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari;
- jamg‘arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari;
- shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari mablag‘lariga hisoblab chiqarilgan foizlar;
- qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa mablag‘lar.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari to‘lash uchun foydalaniladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog‘liq bo‘lmagan majburiyatlarni bajarish uchun foydalanish mumkin emas.

Xalq banki jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining alohida hisobini yuritadi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini ko'paytirish hamda ularni pul qadsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag'lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

2.2. Davlat pensiya ta'minoti moliyaviy resurslaridan foydalanishni boshqarish holatining tahlili

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'laridan:


- ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;
- ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;
- davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar;
- dafn etish marosimi uchun nafaqalar;
- belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar uchun foydalaniladi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'lari quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

- Jamg'arma bo'limlari tomonidan tayinlanadigan pensiyalarni to'lash;
- bolalikdan nogironlarga, davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalarni to'lash;
- korxonaga tugatilganda, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayiblangan, kasb kasalligiga uchragan yoki sog'lig'iga boshqa shikast etkazilgan xodimga zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar;

- dafn marosimi uchun nafaqalarni to‘lash;
- bola tug‘ilganda beriladigan nafaqalarni to‘lash;
- 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolaning ota-onalariga qo‘shimcha ta‘til uchun to‘lovlarni to‘lash;
- qonun hujjatlariga muvofiq Pensiya fondidan mablag‘ bilan ta‘minlanadigan boshqa ijtimoiy to‘lovlarni to‘lash.

O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan pensiya qonunchiligiga muvofiq, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni moliyalashtirish budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.



2.1-rasm. Jamg‘arma mablag‘larining sarflanishi²⁰

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom asosida tuzildi.

Jamg'arma mablag'lari quyidagi toifadagi fuqarolarga ko'rsatilgan turdagi pensiya va nafaqalarni to'lash uchun sarflanadi (2.1-rasm):

a) ishlamaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- davlat pensiya ta'minotiga huquqi bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar;

fuqarolarga nafaqalar;

- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar;

b) ishlaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lovlar;

homiya) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lovlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar.

2.3-jadvalda Davlat Pensiya jamg'armasining xarajatlari tizimining 2010-2016 yillar davomidagi dinamikasi keltirilgan bo'lib, undan ko'rinadiki, ya'ni Davlat Pensiya jamg'armasi xarajatlari tizimida asosiy ulush Ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari hissasiga to'g'ri kelib, uning tutgan ulushi yil sayin umumiy xarajat qismida pasayish xususiyatiga egadir.

Aksincha Pensiya jamg'armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo'lib, uning ulushi o'sish xususiyatiga egadir. Agar 2011 yilda uning ulushi jami xarajatlarning tarkibida 0,01 % ni tashkil etgan bo'lsa 2015 yilga kelib 18,9% ni tashkil etgan. Bu esa oxirgi yillarda xukumatimiz tomonidan Davlat pensiya tizimini isloh qilish, uning mablag'laridan samarali foydalanish tizimidagi say xarakatlari natijasidir.

O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasining xarajatlari tizimi²¹

| t/r | Ko'rsatkichlar | 2012 yil | | 2013 yil | | 2014 yil | | 2015 yil | | 2016 (prognoz) | |
|-----|--|-------------|------------------------------------|-------------|------------------------------------|-------------|------------------------------------|-------------|------------------------------------|----------------|------------------------------------|
| | | Mrd. so'mda | Jami xarajat larga nisbatan foizda | Mrd. so'mda | Jami xarajat larga nisbatan foizda | Mrd. so'mda | Jami xarajat larga nisbatan foizda | Mrd. so'mda | Jami xarajat larga nisbatan foizda | Mrd. so'mda | Jami xarajat larga nisbatan foizda |
| | Xarajatlar jami | 8065.4 | 100.0 | 10302.1 | 100.0 | 13013.7 | 100.0 | 16557.0 | 100.0 | 18113.3 | 100.0 |
| 1. | Ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari | 7246.0 | 89.8 | 9097.9 | 88.3 | 11191.9 | 86.0 | 12838.1 | 77.5 | 14779.6 | 81.6 |
| 2. | Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari | 290.9 | 3.6 | 317.4 | 3.1 | 426.6 | 3.3 | 474.8 | 2.8 | 484.3 | 2.7 |
| 3. | Keksa yoshdagilar va ishlamaydigan fuqarolar uchun nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar | 12.8 | 0.2 | 20.5 | 0.2 | 29.1 | 0.2 | 105.2 | 0.6 | 152.1 | 0.8 |
| 4. | Boshqa xarajatlar | 1.8 | 0.02 | 2.1 | 0.02 | 2.4 | 0.02 | 2.8 | 0.02 | 3.0 | 0.02 |
| 6. | Yil oxirida qoldiq mablag'lar | 513.9 | 6.4 | 864.2 | 8.4 | 1363.7 | 10.5 | 3136.1 | 18.9 | 2694.3 | 14.9 |

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabr PQ-1675-sonli, 2012 yil 25 dekabr PQ-1887-sonli, 2013 yil 25 dekabrda PQ-2099-sonli, 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-sonli, 2015 yil 22 dekabrda PQ-2455-sonli Qarorlari asosida tuzildi.

Ortiqcha to‘langan pensiyalarning qaytarilishi, pensiyalarni hisoblash tizimini takomillashuvi natijasida Jamg‘arma hisobida qoldiq hosil bo‘lib, keyingi yillarda pensiya tizimi dasturlarida belgilangan vazifalar doirasida sarf etilmoqda.

Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi muvozanatning buzilishini kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat:

- pensiya jamg‘armasi daromadlarining shakllanishida korxonalar, tashkilot va muassasalarda yuzaga kelayotgan debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarning mavjudligi; pensiya jamg‘armasi daromadlarining shakllanishida tumanda faoliyat yuritilayotgan korxonalar tashkilotlarda ish nomalari bo‘yicha belgilangan ishchi xodimlarning to‘liq qatnashmayotganligi;
- pensiya jamg‘armasida daromadlarning xarajatlardan kamligi, defitsiti yuzaga kelishiga pensiya jamg‘armasida amal qilayotgan me‘yoriy-huquqiy xujjatlarga amal qilinmaganligi va noto‘g‘ri tayinlangan pensiya turlari hamda fuqarolarga qonunni buzish orqali tayinlangan pensiyalar ortishi sabab bo‘lgan;
- pensiya asosini moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan tariflarning pastligi;
- muddatidan ilgari to‘lanadigan pensiya imtiyozlari, ustamalarini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar;
- mehnat stajini ozligi;
- pensiya jamg‘armasida faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlarning bilim saviyasining pastligi va boshqa omillar sabab bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta‘minlanish huquqiga egadirlar. Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda pensiya olish huquqiga egadirlar. Ish stajiga ega bo‘lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta‘minlanish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilanadi:

- *yoshga doir pensiya;*
- *nogironlik pensiyasi;*
- *boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi.*

Ishlaydigan va ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarining barcha turlari, ya’ni yoshga doir pensiyalar, nogironlik pensiyalari, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari to‘lanadi.

Yoshga doir pensiyalar. Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar - 60 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda, ayollar - 55 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda ega bo‘ladilar. Pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar kamida 7 yil ish staji mavjud bo‘lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Nogironlik pensiyalari. Nogironlik pensiyalari belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog‘lig‘ini yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to‘g‘risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat’i nazar, tayinlanadi.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar (fuqaroning necha yoshda bo‘lganida necha yillik zarur ish stajiga ega bo‘lishi kerakligi Qonunda belgilangan) mavjud ish stajiga ega bo‘lgan taqdirda tayinlanadi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari. Vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a‘zolari boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo‘ladi. Bunda farzandlarga va qonunda belgilangan

oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari hisoblanadigan boshqa a'zolariga pensiya ular boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganidan qat'i nazar tayinlanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiyalarni olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar, ularni tayinlash va to'lash tartiblari haqida "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonunosti hujjatlarda batafsil berilgan.

Dafn marosimi uchun nafaqalar O'zbekiston Respublikasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi 2010 yil 27 dekabrda O'RQ-276-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 14 iyunda qabul qilingan 174-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Dafn etishga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida tayinlanadi va to'lanadi. Ushbu hujjatga muvofiq, nafaqa marhumning eriga (xotiniga), ota-onasiga, farzandlariga va boshqa qarindoshlariga yoki marhumning qonuniy vakiliga, bunday shaxs bo'lmagan taqdirda esa – dafnni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga olgan boshqa shaxsga tayinlanadi va to'lanadi. Nafaqa O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga beriladi.

Ushbu nafaqa:

- davlat pensiyasi oluvchi pensioner;
- davlat ijtimoiy nafaqasi oluvchi fuqaro;
- xodim yoki uning qaramog'idagi oila a'zosi;
- bola hayotining birinchi haftasi mobaynida vafot etganda yoki o'lik bola tug'ilganda (perinatal o'lim);
- ish bilan band bo'lgan yoki band bo'lmagan shaxs, fuqarolarning ayrim toifalariga tegishli bo'lgan shaxs yoki bola vafot etgan taqdirda tayinlanadi.

Ushbu ko'rsatilgan shaxslar vafot etganda nafaqa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanadi. Faqatgina xodim yoki uning qaramog'idagi oila a'zosi vafot etganda nafaqa korxonada, muassasa yoki tashkilot tomonidan Nizomda belgilangan tartibda tayinlanadi.

Ilgari pensioner vafot etgan taqdirda, uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining uch baravaridan oz bo'lmagan miqdorda dafn etish nafaqasi to'lanardi. 2014 yil 4 dekabrda "Soliq va budget siyosatining 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan kiritilgan o'zgartirishga muvofiq, 2015 yil 1 yanvardan e'tiboran dafn etish nafaqasi aniq miqdorda — eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdorida beriladi. Mazkur nafaqa pensioner vafot etganidan keyin 6 oy ichida murojaat etilgan taqdirda olinadi.

Dafn etishga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizamning 26-moddasiga asosan, mazkur nafaqa pochtaning tarkibiy bo'linmasi tomonidan Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan taqdim etilgan vedomost va ariza beruvchining pasporti asosida naqd pul mablag'lari bilan to'lanadi.

Davlat pensiya ta'minotiga huquqi bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida tayinlanadi va to'lanadi.

Bunday toifadagi fuqarolarga:

- yoshga doir nafaqa;
- nogironlik nafaqasi (bolalikdan nogironlardan tashqari);
- boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlanadi.

Nafaqa qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda tayinlanadi. Nafaqalarni tayinlash va to'lash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yoshga doir nafaqalar ish stajiga ega bo'lmagan, shuningdek, 5 yildan kam ish staji mavjud bo'lib, yoshga doir pensiya tayinlash uchun etarli ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga: erkaklarga - 65 yoshga etganlarida, ayollarga — 60 yoshga

etganlarida mehnatga layoqatli voyaga etgan farzandlari, qarindoshlari yoki O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta'minlashga majbur bo'lgan boshqa shaxslar bo'lmagan taqdirda tayinlanadi.

Nogironlik nafaqalari nogironlik sodir bo'lgan hollarda, yoshidan qat'i nazar, ish stajiga ega bo'lmagan I va II guruh nogironlarga faqat mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotilganda tayinlanadi va to'lanadi. Mehnat faoliyatiga layoqati cheklanganligi darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirish (mehnatga layoqati doimiy yoki uzoq muddat yo'qotilganda) Pensiya jamg'armasi bo'limlari yo'llanmalari bo'yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan amalga oshiriladi.

Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bo'yicha davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo'lmagan shaxsning qaramog'ida bo'lgan oilaning mehnatga layoqatli bo'lmagan a'zolari boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi olish huquqiga egadirlar. Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi vafot etganning oila a'zolariga vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo'lgan nafaqaga foiz nisbatida quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a'zosiga — nafaqaning 100 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a'zosiga — nafaqaning 75 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz bir a'zosiga — nafaqaning 50 foizi.

Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasini olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolarining barchasiga belgilangan miqdorda bitta umumiy nafaqa tayinlanadi. Oila a'zosining talabiga ko'ra uning nafaqadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to'lanadi. Bunda tayinlangan nafaqaning umumiy miqdori oluvchilarning umumiy soniga bo'linadi.

Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan, nafaqalarning har xil turlarini olish huquqiga ega bo'lgan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga ularning tanlovi bo'yicha nafaqalarning bir turi tayinlanadi.

Ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish uchun Jamg'armaning hududiy bo'linmalari tomonidan G'aznachilikning bo'linmalarida hisobraqamlari ochiladi.

Jamg'armaning hududiy boshqarmalari to'lov to'lanadigan har bir oyning 15-kunigacha ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar to'lash uchun mablag'larga bo'lgan ehtiyoj hajmini belgilaydi hamda Jamg'armaning ijro etuvchi apparatiga buyurtmanoma taqdim etadi.

Jamg'armaning ijro etuvchi apparati Jamg'arma xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda:

joriy to'lov oyining 15-kunigacha - o'tgan oyning ehtiyoji hisob-kitobidan kelib chiqib 50 foiz miqdoridagi summani;

joriy to'lov oyining 27-kunigacha - amaldagi ehtiyojning taqdim etilgan miqdoridan qolgan summani moliyalashtiradi.

Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlar uchun mablag'larni aloqa tashkilotlari va banklarning hisob raqamlariga o'tkazadi.

Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari tashkilotlarning buyurtmanomalari bo'yicha ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, dafn marosimi uchun nafaqalar, 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalarning ota-onalaridan biriga qo'shimcha dam olish kunlari uchun va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlarni to'lashga mablag'larni moliyalashtiradi.

Jamg'armaning hisob raqamlaridan mablag'larni qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda o'tkazish va vaqtincha olib qo'yish taqiqlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining bir qator to'lovlari pensiya jamg'armasiga boshqa manbalardan qoplab beriladi. Bu ish Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 23 dekabrda 357-son qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi

O‘zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq pensiyalarni to‘lashga xarajatlarni qoplash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” asosida amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga ko‘ra:

- xodimlarning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi oqibatida tayinlangan boquvchisini yo‘qotganlik va nogironlik pensiyalarini;

- mehnat sharoiti zararli va og‘ir ishlarda to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlarga tayinlangan pensiyalarni;

- texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o‘zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o‘zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e‘tirof etilgan shaxslar: erkaklar — 58 yoshga to‘lganda va ish staji kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda; ayollar - 53 yoshga to‘lganda va ish staji kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda tayinlangan pensiyalarni to‘lashga yo‘naltirilgan budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini qoplash korxonalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda korxonalar va tashkilotlar xodim Qonunda nazarda tutilgan pensiya yoshiga etguniga qadar Qonunga muvofiq tayinlangan pensiyalar bo‘yicha pensiyalar to‘loviga xarajatlarni qoplaydigan to‘lovni 100 foiz miqdorida, lekin Nizomda nazarda tutilgan minimal miqdordan kam bo‘lmagan miqdorda Pensiya jamg‘armasiga o‘tkazadilar.

Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi uchun javobgar tashkilot tugatilgan taqdirda tugatish komissiyasi (tugatuvchi) tashkilotning tugatish kuniga tayinlangan pensiya miqdorida kapitallashtirilishni hisobga olgan holda ajratmalarni majburiy ravishda yuqorida nomi keltirilgan Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Masalan, mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik bo‘yicha pensiyalarni to‘lashga:

- agar nogironlik muayyan davrga belgilangan bo‘lsa, nogironlikning amal qilish muddatiga, biroq kamida besh yil uchun;

- agar nogironlik muddatsiz belgilangan bo'lsa, ajratmalarni hisoblab chiqish sanasida xodimlar O'zbekiston Respublikasida kutilayotgan umr ko'rish yoshiga etgungacha bo'lgan muddatga belgilanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari bo'yicha mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolariga nisbatan:

- o'n sakkiz yoshga etmagan oila a'zolariga — ular ushbu yoshga etgunlariga qadar;

- vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralarini boqish bilan mashg'ul bo'lgan oila a'zolariga — boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralari, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta'tilda bo'lish huquqini beradigan yoshga to'lgunga qadar;

- ota, ona, o'gay ota, o'gay ona, xotin, erga — agar ular Qonunda nazarda tutilgan pensiya yoshiga to'lgan yoki nogiron bo'lsalar, shuningdek buva va buviga — agar qonunga muvofiq ularni boqishi shart bo'lgan kishilar bo'lmasa, ajratmalarni hisoblab chiqish sanasida ular O'zbekiston Respublikasida kutilayotgan umr ko'rish yoshiga etgunga qadar bo'lgan muddatga.

Agar O'zbekiston Respublikasida kutilayotgan umr ko'rish yoshi va mehnat vazifalarini bajarishda mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyasiga huquqi bo'lgan fuqaro yoshi o'rtasidagi farq 5 yildan kam bo'lsa, shuningdek, agar fuqaroning yoshi O'zbekiston Respublikasida kutilayotgan umr ko'rish yoshidan ko'p bo'lsa, u holda mablag'lar kamida 5 yil uchun to'lanishi lozim.

Shuningdek, ishsiz maqomiga ega bo'lgan shaxslarga muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalar to'lashga xarajatlar ham boshqa manbalardan qoplanadi.

Bunda Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari har oyda muddatidan oldin yoshga doir pensiyalar tayinlangan shaxslarning ro'yxatini, amalga oshirilgan xarajatlarni ko'rsatgan holda, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hududiy

Bosh boshqarmalari Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tegishli tuman (shahar) markazlariga yetkazadilar.

Aholi bandligiga ko'maklashish markazlari har oyda pensiya to'langan oydan keyingi oyning 15-sanasigacha Pensiya jamg'armasiga ushbu xarajatlarni qoplovchi mablag'larni ishsiz Qonunda belgilangan pensiya yoshiga etguniga qadar o'tkazadilar.

Pensioner hisobda turgan joy bo'yicha Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi o'zining bu xarajatlar bo'yicha Aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining qarzdorligi summalari haqidagi ma'lumotlarni davlat soliq xizmati organiga har oyda oyning 15-sanasigacha taqdim etadilar.

Pensioner hisobda turgan joy bo'yicha Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari mazkur pensiyalarni to'lashga ketgan mablag'larni Aholi bandligiga ko'maklashish markazlaridan, ular tomonidan o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, qonun hujjatlariga muvofiq regress da'vo arizalari bo'yicha undirishlari mumkin.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy ximoya qilishning pensiya va ijtimoiy nafaqalar orqali moddiy qullab-quvvatlashdan tashqari, ular uchun bir qator imtiyozlar xam joriy qilingan. Bu eng avvalo, pensionerlar va ijtimoiy nafaqa oluvchilar turmush tarzini oshirishni kuzda tutadi. Hozirgi paytda, davlat pensiya ta'minoti sohasida kadrlar samaradorligini oshirishga, uning sifat tarkibini yaxshilashga hamda sohani oliy ma'lumotli kadrlar bilan butlashga alohida e'tibor qaratilgan va bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar birmuncha samarali natijalarga erishishni ta'minlamoqda.

2.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ya'ni 2016 yil 1-yanvar holatida Navoiy viloyatida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan pensiya va nafaqalar oluvchilar 90341 kishini tashkil etgan.

2.2-rasmda Navoiy viloyati bo'yicha 2015 yil 1-aprel holatiga pensiya va nafaqa oluvchilar soni va ularning ulushi keltirilgan

2.4-jadval


2016 yil 1-yanvar holatiga Navoiy viloyati bo'yicha budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan pensiya va ijtimoiy nafaqalar oluvchilar to'g'risida ma'lumot²²

| t/r | Pensiya va nafaqalar turi hamda toifalari | 2015 yil 1 yanvar holatiga pensiya va nafaqa oluvchi conii (kishi) | Hisobot davrida hisobga olingan pensiya va nafaqalar | | | | | | Qo'shim-cha hujjatga asosan qayta hisob-landi |
|--|---|--|--|-------------------|--------------------|--------------------------------|------------------------------------|------------------------------|---|
| | | | Umumiy soni | Shu jumladan: | | | | | |
| | | | | Yangi tayin-landi | Yangidan ishlovchi | Boshqa hudud-dan ko'chib keldi | Nogiron guruhlari va BYP tik-landi | Boshqa tur pen-siyadan o'tdi | |
| 1 | Jami pensiya oluvchilar soni | 90 341 | 3 207 | 1 376 | 176 | 75 | 1 724 | 32 | 78 |
| O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, pensiyalar | | | | | | | | | |
| 2 | Yoshga doir pensiya - jami | 67 926 | 1 229 | 1 041 | 158 | 47 | 125 | 16 | 64 |
| 3 | Shundan: Ko'p bolali onalar | 22 957 | 31 | - | - | 9 | 22 | - | - |
| 4 | 54 yoshdan ayollar | 7 777 | 274 | 240 | 74 | 10 | 19 | 5 | 12 |
| 5 | Ishsizga muddatidan oldin | 664 | 1 | - | - | - | 1 | - | - |
| 6 | 1-sonli ro'yxat bo'yicha | 20 | - | - | - | - | - | - | - |
| 7 | 2-sonli ro'yxat bo'yicha | 4 675 | 57 | 20 | 7 | 4 | 32 | 1 | 1 |
| 8 | 3-sonli ro'yxat bo'yicha | 7 890 | 317 | 21 | 8 | 2 | 294 | - | 1 |
| 9 | Tuliq bo'lmagan chog'dagi pensiya | 6 617 | 529 | 504 | 15 | 12 | 11 | 2 | 22 |
| 10 | Nogironlik pensiyalari - jami | 16 623 | 1 463 | 193 | 18 | 16 | 1 247 | 7 | 8 |
| 11 | Shundan: 1-guruh ko'z kasalligi | 709 | 31 | 2 | - | - | 28 | 1 | - |
| 12 | 1-guruh jami | 1 398 | 107 | 19 | - | - | 82 | 6 | 1 |
| 13 | 2-guruh | 13 729 | 1 331 | 174 | 18 | 12 | 1 144 | 1 | 7 |
| 14 | 3-guruh | 1 496 | 25 | - | - | 4 | 21 | - | - |

²² Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Navoiy viloyati Boshqarmasi ma'lumotlari asosida

| | | | | | | | | | |
|---|--|--------------|--------------|------------|----------|-----------|------------|-----------|----------|
| 15 | Boquvchisini yo'qotganlik - jami | 5 171 | 429 | 141 | x | 11 | 268 | 9 | 6 |
| 16 | Shundan: 1 nafar oila a'zosiga | 3 792 | 268 | 84 | x | 5 | 170 | 9 | 5 |
| 17 | 2 nafar oila a'zosiga | 994 | 103 | 33 | x | 4 | 66 | - | - |
| 18 | 3 nafar va undan ortiq oila a'zosiga | 385 | 58 | 24 | x | 2 | 32 | - | 1 |
| "Xarbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, pensiyalar | | | | | | | | | |
| 19 | Pensiya oluvchilarni soni | 621 | 86 | 1 | - | 1 | 84 | - | - |
| 20 | Shundan: Nogironlar soni | 576 | 86 | 1 | - | 1 | 84 | - | - |
| 21 | 1-guruh | 84 | 11 | - | - | - | 11 | - | - |
| 22 | 2-guruh | 401 | 56 | - | - | 1 | 55 | - | - |
| 23 | 3-guruh | 91 | 19 | 1 | - | - | 18 | - | - |
| 24 | Boquvchisini yo'qotganlik | 45 | - | - | x | - | - | - | - |
| 25 | Shundan: 1 nafar oila a'zosiga | 40 | - | - | x | - | - | - | - |
| 26 | 2 nafar oila a'zosiga | 5 | - | - | x | - | - | - | - |
| 27 | 3 nafar va undan ortiq oila a'zosiga | - | - | - | x | - | - | - | - |
| O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 iyundagi 319-sonli Qaroriga muvofiq, nafaqalar | | | | | | | | | |
| 28 | Jami nafaqa oluvchilar | 8 167 | 1 084 | 232 | x | 9 | 767 | 76 | - |
| 29 | Shulurdan: Nogironlar - jami | 7 731 | 1 052 | 213 | x | 8 | 757 | 74 | - |
| 30 | shundan: 1 guruh bolalikdan nogiron | 641 | 28 | 6 | x | - | 16 | 6 | - |
| 31 | 2 guruh bolalikdan nogiron | 3 742 | 368 | 57 | x | 4 | 278 | 29 | - |
| 32 | 3 guruh bolalikdan nogiron | - | - | - | x | - | - | - | - |
| 33 | 16 yoshgacha bolalikdan nogiron | 3 231 | 616 | 127 | x | 4 | 446 | 39 | - |
| 34 | 1-guruh umumiy kasallik nogiron | 21 | 6 | 4 | x | - | 2 | - | - |
| 35 | 2-guruh kasallik nogiron | 96 | 34 | 19 | x | - | 15 | - | - |
| 36 | 3-guruh kasallik nogiron | - | - | - | x | - | - | - | - |
| 37 | 65 yoshga etgan erkaklar va 60 yoshga etgan ayollar | 84 | 5 | 5 | x | - | - | - | - |
| 38 | Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi oluvchilar - jami | 352 | 27 | 14 | x | 1 | 10 | 2 | - |
| 39 | Shundan: 1 nafar oila a'zosiga | 212 | 8 | 4 | x | - | 3 | 1 | - |
| 40 | 2 nafar oila a'zosiga | 99 | 18 | 10 | x | 1 | 6 | 1 | - |
| 41 | 3 nafar va undan ortiq oila a'zosiga | 41 | 1 | - | x | - | 1 | - | - |

| | |
|---|--------------|
| Yoshga doir pensiya oluvchilar soni | 68438 |
| Nogironlik bo'yicha pensiya oluvchilar soni | 17230 |
| Boquvchisini yuqotganlik bo'yicha pensiya oluvchilar soni | 5215 |
| Ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni | 8364 |
| Jami | 99247 |



2.2-rasm. Navoiy viloyati bo'yicha 2016 yil 1-aprel holatiga pensiya va nafaqa oluvchilar soni va ularning ulushi ²³

2.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ya'ni Navoiy viloyati bo'yicha 2016 yil 1-yanvar holatida aholi soni 913349 kishini tashkil etgan bo'lib, shudan 98508 kishi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan pensiya va ijtimoiy nafaqalar oluvchisi hisoblanadi, bu esa jami Navoiy viloyati aholining 10,8 % ni tashkil etmoqda. 2016 yilning aprel oyida bu ko'rsatkich 10,9 % ni tashkil etmoqda va 99247 kishi pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan pensiya va nafaqalar oluvchilari hisoblanadi.

Aholi tarkibidagi 11,9 % pensiya va nafaqa oluvchisi ulushida Qiziltepa tumani yuqori ulushni tashkil etib, Tomdi tumani eng past ulush, ya'ni 8,9 % bilan eng pastki o'rinda turibdi.

2016 yilning 1-yanvariga nisbatan 2016 yilning 1-aprel holatiga budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan pensiya va nafaqa oluvchilar soni 739 kishiga kamaygan.

²³ Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Navoiy viloyati Boshqarmasi ma'lumotlari asosida

2.5-jadval

2016 yilning 1 yanvar va 2016 yilni 1 aprel holatiga Navoiy viloyati tuman va shaharlari bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limlar hisobida turgan pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilarning umumiy soni to'g'risida tezkor ma'lumot²⁴

| № | Hududlar nomi | 2016 yil 1 yanvar holatiga aholi soni | 2016 yil 1 yanvar holatiga jami pensiya va nafaqa oluvchilar | | 2016 yil 1 yanvar holatiga aholi soni | 2016 yil 1 aprel holatiga jami pensiya va nafaqa oluvchilar | | farqi (kishi soni) |
|------------------|---------------|---------------------------------------|--|-------------------------|---------------------------------------|---|-------------------------|--------------------|
| | | | kishi soni | aholi sonidagi ulushi % | | kishi soni | aholi sonidagi ulushi % | |
| 1 | Nurota t | 85 582 | 9 694 | 11,4 | 85 582 | 9 752 | 11,4 | 58 |
| 2 | Karmana | 113 172 | 13 051 | 11,5 | 113 172 | 13 183 | 11,6 | 132 |
| 3 | Xatirchi | 182 997 | 18 307 | 10,1 | 182 997 | 18 623 | 10,2 | 316 |
| 4 | Kanimex | 29 410 | 3 707 | 12,7 | 29 410 | 3 715 | 12,6 | 8 |
| 5 | Qiziltepa | 140 152 | 16 541 | 11,8 | 140 152 | 16 612 | 11,9 | 71 |
| 6 | Tomdi | 14 660 | 1 313 | 9,0 | 14 660 | 1 312 | 8,9 | 1 |
| 7 | Navoi | 133 569 | 15 176 | 11,4 | 133 569 | 15 278 | 11,4 | 102 |
| 8 | Zarafshan | 75 583 | 6 901 | 9,1 | 75 583 | 6 895 | 9,1 | 6 |
| 9 | Navboxor | 103 279 | 10 578 | 10,2 | 103 279 | 10 644 | 10,3 | 66 |
| 10 | Uchkuduk | 34 945 | 3 240 | 9,2 | 34 945 | 3 233 | 9,3 | 7 |
| Viloyat bo'yicha | | 913 349 | 98 508 | 10,8 | 913 349 | 99 247 | 10,9 | 739 |

²⁴ Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Navoiy viloyati Boshqarmasi ma'lumotlari asosida

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTINI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish orqali pensiya ta'minotini boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 'Keksalarni e'zozlash yili Davlat dasturi to'g'risida" gi 2015 yil 18 fevraldagi PQ-2302-son qarorini ijro etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 19 oktyabrda 297-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "2015 — 2017 yillarda pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiya va ijtimoiy nafaqalar oladigan 2,7 milliondan ortiq pensionerlar va 237 ming fuqarolar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini ifodalaydigan, uning vositasida pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, hisob-kitob qilish, qayta hisob-kitob qilish, shuningdek har oyda tayinlash jarayonlarini avtomatlashtirish ta'minlanadigan avtomatlashtirilgan axborot tizimi — "Pensiya" dasturiy majmui joriy etilganyu.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Pensiya" dasturiy majmui negizida uni yanada takomillashtirish va funktsional kengaytirish yo'li bilan keksa kishilar uchun pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlashning eng qulay tizimini nazarda tutuvchi, ma'lumotnomalar va tasdiqlovchi hujjatlarni qog'oz shaklida olishni istisno etuvchi, shuningdek pensiyalar va nafaqalar to'lashga mablag'larni o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlaydigan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimi tashkil etildi.

2015 — 2017 yillarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish reja-jadvali tasdiqlansin.

Vazirliklar va idoralar tasdiqlangan 2015 — 2017 yillarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish reja-jadvali to'liq, o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi "Nafaqa" yagona axborot tizimini joriy etish tugallangandan keyin 2018 yil mobaynida "Nafaqa" yagona axborot tizimi faoliyat ko'rsatishini yanada qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan server asbob-uskunalarini xarid qilish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tender savdolari o'tkazildi.

O'z bazasida qonunchilik va ijro hokimiyati organlari, shuningdek, vakolatli vazirliklar, qumitalar va idoralar foydalana oladigan majburiy to'povlarni hisoblash va to'lash bo'yicha axborotga ega bo'lgan-birlashgan integratsiyalashgan tizimni yaratish byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromad qismini shakllantirish, ular moliyaviy resurslaridan foydalanishni ijro etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tashkil etish, muvofiqlashtirishni yaxshilash, samarasini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Bugungi kunda yuqorida keltirilgan ko'pchilik vazirlik va idoralar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ijrosi buyicha quyilgan vazifalarni bajarishda ham foydalaniladigan muayyan dasturiy ta'minot, axborotlarni uzatish tarmoqlari, server va boshka uskunalarga ega. Mavjud dasturiy ta'minotlar birinchi navbatda yuqorida keltirilgan vazirlik va qo'mitalarga yuklatilgan idoraviy vazifalarni bajarish uchun foydalaniladi. O'ziga xos jihat kasb etuvchi ushbu vazifalarning bir qismining bajarilishi ma'lum vazirliklar va idoralar tomonidan qat'iy ta'minlanadi, ularning idoraviy ma'lumotlar bazasidagi axborotlar esa mahfiy bo'lishi mumkin.

Yuzaga kelgan vaziyat va yuqorida keltirilgan holatlar, davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek, soliq va boshqa majburiy tulovlarning vakolatli ma'murchilarini birlashgan integratsiyalashgan axborot bilan ta'minlash tizimini yaratishda strategiya va taktikani tanlashga, shubxasiz, muayyan turtki beradi. Birlashgan integratsiyalashgan axborot bilan ta'minlash tizimini yaratish byyicha quyilgan vazifalarni amalga oshirishning maqbul usullaridan biri, fikrimizcha, o'zida ma'lum vazirliklar, qo'mitalar va idoralarning axborot tizimlarini birlashtiradigan va bir idoraviy tizimdan boshqasiga zarur ma'lumotlarni uzatish, ya'ni vazirliklar, qo'mitalar, idoralarning axborot bazalari o'rtasida o'zaro axborot almashish imkonini beradigan axborot tizimini yaratish kerak. Ya'ni, vazirliklar, qo'mitalar va idoralarning dasturiy majmualari birlashgan integratsiyalashgan axborot tizimiga kiritilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga, o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ijrosini ta'minlaydigan boshqa vakolatli idoralarning axborot bazalarida shakllanadigan ma'lumolpardan foydalanish zarur bo'lishini inobatga oladigan bo'lsak, vazirlikning ma'lumotlar bazasiga boshqa vazirliklar va idoralarning ma'lumot bazalaridan katta hajmdagi ma'lumotlar kelib turishi zarur bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda, ayrim vazirliklar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi hajmi juda oz darajada yoki umuman bo'lmasligi ham mumkin va bu holatni birlashgan integrallashgan axborot bilan ta'minlash tizimini (BIATT) yaratishda inobatga olish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chikib, BIATTni yaratish loyihalashtirilayotganda, nazarimizda, birinchi navbatda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. BIATTdan axborot olish va undan foydalanishga qiziqqan har bir ishtirokchi BIATT ning boshqa ishtirokchilarining ma'lumotlar bazasidagi axborotlarning xususiyatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lishi;

2. So'ralayotgan ma'lumotlarni mahfiylik nuqtai nazaridan aniqlash va bu masalani BIATT ishtirokchilari va tegishli mutasaddi idoralar o'rtasida kelishish imkoniyatiga ega bo'lish;

3. BIATT ishtirokchilarining o‘zaro xarakatlarini tartibga soladigan idoralararo rasmiy xujjatlarni, shuningdek, axborot almashinuvi uchun elektron o‘zaro xarakatlar shakllari va maketlarini birgalikda ishlab chiqish va tasdiqlash;

4. Taqdim etilayotgan mahfiy ma’lumotlarni ro‘xsatsiz foydalanishdan himoyalash choralarini ko‘rish.

Bugungi kunda byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijrosi bo‘yicha vazifalar va funksiyalarni bajaruvchi idoralarni axborot bilan ta’minlashda bir qator kamchiliklar kuzatiladi. Ularning eng asosiylaridan biri - aynan bir ma’lumot banklar tomonidan soliq, moliya va g‘aznachilik organlariga, shuningdek, Markaziy bankning bo‘linmalariga turli ko‘rinishlarda taqdim etilayotgani, ya’ni axborot oqimlari takrorlanayotgani va ularda taqdim etilayotgan ma’lumotning har doim ham aynan bir hil bo‘lmasligidir. Shu bilan bir vaqtda, aynan bir ma’lumot turli vazirliklar, idoralar va banklarning dasturiy majmualarida takror-takror qayta ishlanadi va ular har doim ham haqiqiy (ob’ektiv) bo‘lavermaydi. Mazkur muammoni, har bir davlat organi birlashgan integratsiyalashgan tizim orkali ma’lumot olayotib, ularni o‘zining boshqaruv vazifalari kesimida qayta ishlashiga sharoit yaratuvchi samarali axborot hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali jalb etish mumkin va bu, boshqaruvning turli darajalarida tahlil o‘tkazish imkonini beradi.

Birlashgan integratsiyalashgan axborot bilan ta’minlash tizimi uzatilayotgan va qabul qilinayotgan moliyaviy va boshqa ma’lumotlarning asosiy oqimlarini va parametrlarini inobatga olishi, turli davlat organlari o‘rtasida axborot almashinuvi, shuningdek, ular tomonidan boshqa vazirliklarning ma’lumotlar bazasida mavjud bo‘lgan axborotlardan ham joriy ishda, ham rejalashtirish va prognozlashtirish maqsadlarida foydalanish imkonini berishi lozim. Boshlang‘ich bosqichda bu vazifa vazirliklar va idoralar guruhi doirasida hal etilishi, ya’ni ular o‘rtasida almashiladigan ma’lumotlar tarkibi va xajmi aniqlanishi, keyinchalik esa, umumdavlat miqyosida axborot almashishning global tizimini yaratishga qaratilgan masalaning echimiga o‘tish mumkin.

Yuqorida ta’kiddanganidek, davlat organlari uchun turli vazirliklar va idoralarning ma’lumotlar bazasidagi mahfiy ma’lumotlardan foydalanish borasida muammolar mavjud. Bunga, soliq organlarining ma’lumotlar bazasidagi soliq to’povchilar to’g’risidagi ma’lumotlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Ammo bu ma’lumotlar tijorat siri sifatida majburiy himoya qilinadi. Xolbuki, ob’ektiv ma’lumotdan foydalanishga ro’xsat etilishi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi daromadlari va harajatlarini to’g’ri va aniq prognozlashtirish, rejalashtirish va boshqarishning garovidir. Bu esa davlat organlari o’rtasida birlashgan integratsiyalashgan axborot tizimi doirasida himoyalangan mahsus axborot oqimlarining mavjudligi ma’lum mohiyatga egaligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, birlashgan integratsiyalashgan axborot tizimi doirasidagi o’zaro munosabatlar aniq huquqiy asosga va texnik aniqlikka ega bo’lishi lozim.

Birlashgan axborot bilan ta’minlash bazasiga quyidagi ma’lumotlar kiritilishi mumkin:

- pensiya va nafaqa oluvchilarning identifikatsiyaviy, statistik, ilmiy va boshqa tavsiflarni o’zida mujassam etgan davlat reestri;

- pensiya ta’minoti qonunchiligi buzilganligi to’g’risida, shuningdek, o’tkazilgan nazorat chora-tadbirlari, natijalari va ular asosida qabul qilingan qarorlar to’g’risida ma’lumotlar;

- tushumlarning turlari (soliqlar, jarima sanksiyalari, boqimandalar, ortiqcha to’langan summalar) kesimida yuridik va jismoniy shaxslardan byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasiga tushgan majburiy ajratmalar va boshqa tushumlar haqida ma’lumotlar.

Bundan tashqari, birlashgan integratsiyalashgan axborot tizimining ma’lumotlar bazasiga, shuningdek, quyidagi malumotlar ham kiritilishi mumkin:

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasiga daromadlar tushumi va xarajatlar ijrosi to’g’risidagi ma’lumotlar, taqdim etilgan muddatni uzaytirish muddatlari bo’yicha imtiyozlarni taqdim etish va bekor qilish to’g’risidagi qarorlar;

- majburiy ajratmalr to'lovchining hisobi, jarima sanksiyalarining to'langanligi hamda majburiy ajratmalarni to'lash bo'yicha qarzdorlik to'g'risidagi ma'lumotlar;

- statistik ma'lumotlar, statistik kodlar va boshqalar;

- boshqa dolzarb ma'lumotlar.

Zarur axborotlarning o'zaro almashinuvi, shuningdek, uni qayta ishlash va tahlil qilishni avtomatlashtirish, tegishli davlat organlarining byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tushumlarini yig'ish, ularning hisobi va nazorati bo'yicha o'z vazifalarini sifatli va qisqa muddatlarda bajarishi, birlashgan integratsiyalashgan axborot tizimiga boshqa foydalanuvchilar kiritadigan ma'lumotlardan foydalanishi - xodimlarning ish vaqtini bo'shatish, hatolar ehtimolini qog'oz shakldagi ma'lumotlardan foydalanmagan holda "qo'lda kiritiladigan" iga qaraganda sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Davlat moliyasi sohasida eng yangi axborot texnologiyalarini va ilmiy ishlanmalarni joriy etish ayni zarurat. Ya'ni, shunisi aniqki, bu yunalishda davlat darajasida amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish zarur bo'ladi, chunki har bir vazirlik va idoraning o'z axborot texnologiyalari va dasturiy majmualarini yaratishi hamda ularni qo'llashi keyinchalik birlashgan davlat axborot bazasini yaratish maqsadida ularni birlashtirishda sezilarli xarajatlarni talab etadi.

Davlat budjetini tuzish va ijro etishning avtomatlashtirilgan tizimini, davlat budjetiga daromadlar tushumi va hisobi jarayonini avtomatpashtirish bo'yicha ishlar Moliya vazirligi tizimida ham amalga oshirilmoqda. Yaratilayotgan avtomatlashtirilgan tizim, fikrimizcha, birlashgan integratsiyalashgan axborot tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Avtomatlashtirish lozim bo'lgan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi budjetini tuzish, tasdiqlash va g'azna ijrosining quyidagi jarayonlarini ajratib ko'rsatish mumkin: budjetni rejalashtirish, g'azna ijrosi, moliyaviy nazorat tartiblari, boshqaruv hisobi va tahlil.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi byudjetini shakllantirish va tasdiqlash bosqichida o'tgan yillardagi hisobotlarni shakllantirish va foydalanish,

formulalar (egiluvchan rejim)ni o'zgartirish, budjet loyihasini tuzish uchun zarur tahliliy ma'lumotlarni, turli xujjatlarni va boshqalarni generatsiya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda amal qilayotgan budjet ijrosi jarayonini qisman avtomatlashtirishni ta'minlayotgan vazirliklar va idoralarning o'z dasturiy mahsulotlari mavjudligiga qaramasdan soliq, bojxona, moliya va g'azna organlari, shuningdek, banklardagi axborot tizimlari mukammallikdan yiroq. Ushbu organlar o'rtasida axborot tizimlarining o'zaro sifatli harakatini ta'minlaydigan dasturiy maxsulot mavjud emas. Shuni ta'kidlash zarurki, daromadlar tushumi va hisobi ustidan davlat nazorati jarayonlarini yanada avtomatlashtirishni davom ettirish, bu jarayonda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash - nafaqat davlat budjeti daromad qismining g'azna ijrosini joriy qilish va rivojlantirish, balki butun davlat moliyasi tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun ham zarur.

3.2. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish va unda horij mamlakatlar ilg'or tajribalaridan foydalanish masalalari

Ma'lumki, mamlakatimizda nuroniy, mo'ysafid otaxonlarimiz, yuzidan nur va mehr yog'ilib turadigan farishtadek onaxonlarimiz alohida e'zozlanadi, ular jamiyatimiz boyligi sanaladi. Yoshi ulug'larga hurmat-ehtirom, mehr-oqibat va muruvvat ko'rsatish, ota-onani e'zozlash, yoshi kattalarga iliq va yaxshi munosabatda bo'lish, ularning sihat-salomatligiga g'amxo'rlik qilish va eyish-ichishidan xabardorlik kabi go'zal odatlar asrlar bo'yi xalqimiz tabiatiga singib ketgan. Yurtboshimiz tomonidan 2015 yilning Keksalarni e'zozlash yili deb e'lon qilinishi, birinchi navbatda, keksalarimizning tafakkuri va yashash tarzini o'zgartirishga qaratilgani bilan ham g'oyatda ahamiyatli bo'ldi.

Ammo bugun dunyoning qator davlatlarida demografiya va pensiya ta'minoti nomutanosibligi, keksayish jarayonlarining global muammolari bo'y

ko'rsatmoqdaki, mazkur masalalar tahlili keksalarning hozirgi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitdagi huquqiy, moddiy va tashkiliy imkon va shart-sharoitlarini maksimal darajada saqlab qolish, keksalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Hozirgi zamon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, yaqin 20 yil ichida dunyo aholisi tarkibida pensiya yoshidagi keksa-qariyalar soni keskin oshib borishi natijasida hatto eng rivojlangan davlatlar ham pensiya to'lovlariga yo'naltiriladigan mablag'larning tanqisligi muammosiga duchor bo'lishi mumkin. Iqtisodiy inqiroz yoqasiga kelib qolgan Gretsiya bu borada juda katta muammolarga duch kelmoqda. Greklar 37 yillik ish stajiga ega bo'lsa, 58 yoshda pensiyaga chiqishi mumkin edi. Shu kunlarda hukumat eng kam ish stajini 40 yil qilib belgiladi. Boz ustiga, Gretsiya hukumati fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari bilan pensiya jamg'armasi hamkorligini yaxshi yo'lga qo'ymagani bois jiddiy muammolar yuzaga keldi. Gretsiya ijtimoiy hayotida g'alati holat fosh etilgan va rasmiy choralar ko'rilgan edi. Ya'ni vafot etgan pensionerlar pensiyasi ularning qarindoshlariga berib kelingan. Pensionerlarning o'lgani hech qaerda qayd etilmagani bunga sabab bo'lgan. Bunday holat 63,5 mingtani tashkil etgani, ayniqsa, ajablanarlidir. Keyingi tekshiruvlarda yana 50 mingta shunday holat aniqlandi.

Ma'lumotlarga ko'ra, agar hukumatlar 2050 yilga qadar pensiya yoshini ko'tara olmasa, Evropada pensiya jamg'armalari taqchilligi yiliga 100 milliard evrodan kam bo'lmaydi. Ammo kasaba uyushmalari va muxolifat vakillari bunday choralar bilan kelisha olmayapti. Evropa Ittifoqining 12 mamlakatida 10 million qariya jiddiy va uzoq davom etadigan jismoniy yoki psixologik tusdagi kasalliklarga chalingan. Bunday yordamga muhtoj shaxslar ko'pligi tibbiy, sanitar, ijtimoiy va huquqiy yordam ko'lamini oshirishni taqozo qilmoqda. Bugun Evropadagi ishchi o'rinlarining 60 foizini 50 yoshgacha bo'lganlar, 40 foizini esa 50 yoshdan oshganlar tashkil qilayotganining o'ziyoq muammoning nechog'lik dolzarbligini ko'rsatib turibdi. Hayot darajasi yaxshilanishi natijasida odamlarning umri ham uzayib bormoqda. Lekin ularga umrining oxiriga qadar

pensiya to'lash, munosib yashash sharoitlarini yaratib berishni davom ettirish davlat zimmasida. 2010 yilda pensiya jamg'armalaridagi defitsit 300 milliard evroni tashkil qildi. Gollandiya banki pensiya miqdorini o'rtacha 3 foizga kamaytirdi. Aniq hisob-kitoblarga qaraganda, uchinchi dunyo mamlakatlarida hozirgi vaqtda 342 million keksa sog'lig'ining yomonlashuvi, daromad manbalarini yo'qotishi bilan bog'liq qaltisliklardan himoya qilinmagan. 2050 yilga borib ularning soni 1,2 milliard kishiga ortishi mumkin.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, jahon miqyosida 60 yoshdan oshgan aholi ulushi 1950 yilda 8 foizni, ya'ni 205 million kishini tashkil qilgan edi. Bu ko'rsatkich 2009 yilda 10,8 foizga, ya'ni 737 million kishiga o'sib, 2050 yilda 22 foizga chiqishi va 2 milliarddan ortishi kutilmoqda.

Aholining qarishi jamiyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Keksalar kishilar mablag'larni keng xo'jalik mahsulotlari sotib olishga sarflagandan ko'ra, ularni ko'pincha tejash-saqlashni afzal bilishadi. Bu inflyatsiyaga aks bosim hisoblanadi. Shunga qaramay, ijtimoiy ta'minot va pensiyalar tizimida salbiy tendentsiyalar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, Evropada ular aholi ishlovchi qatlamining soliq to'lovlari hisobidan moliyalashtirilmoqda, baxtga qarshi, bu qism muttasil kamaymoqda. Shu tariqa aholining qarishini nazorat qilish va ularning yangi sharoitlarda jamiyatga moslashishi demografik siyosatning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

G'arb qadriyatlariga ko'ra, inson jamiyat oldida mas'ul emas, bola tug'ish va uni tarbiyalash amalda ota-ona qariganda ular haqida g'amxo'rlik qilishni anglatmaydi. Keksalar yordam ko'rsatishning formal va noformal tizimlari mavjud. Birinchi turga davlat, xayriya, xususiy tashkilot va muassasalar xizmatlari, ikkinchi turga oila a'zolari, do'stlar va qo'ni-qo'shnilar yordami kiradi. Rivojlangan davlatlar uchun formal xizmatlar ko'rsatish xosdir.

Qariyalar uyi ana shunday ob'ektlar doirasiga kiradi. U qo'llab-quvvatlashdan mahrum bo'lgan va muntazam kuzatib borishga ehtiyoj sezadigan, tibbiy yordam taqdim etiladigan keksalar kishilar yashovchi davlat yoki shaxsiy asosdagi muassasadir. Bunday uylarda keksalar o'ziga o'zi ovqat tayyorlash va

xona tozalash zaruriyatidan ozod qilinadi. Qariya erkak va ayollar vaqtlarini birgalikda o'tkazishlari, suhbat qurishlari, sayr qilishlari, televizor ko'rishlari mumkin.

Odatda, bu kabi uylar G'arbda, oiladagi turli avlod vakillari bir-biridan mustaqil yashaydigan jamiyatlarda ko'proq uchraydi. AQSh, Shimoliy va G'arbiy Evropa, Yaponiya mamlakatlari shular sirasiga kiradi. O'z farzandlari va boshqa yaqin qarindoshlari bilan birga hayot kechiradigan jamiyatlarda, musulmon Sharqida bu kabi muassasalar kam uchraydi, hatto uyatli hisoblanadi.

Rossiyada qariyalar uylari munitsipal va davlat shaklida joriy etilgan bo'lib, byudjetdan moliyalashtiriladi. Ularda yashovchilar qoida tariqasida keksa kishilar bo'lishi yoki yaqin qarindoshlardan mahrum bo'lgan yoxud ular bilan aloqaga ega bo'lmagan shaxslardir. Ko'pincha, ularda nobop sharoitdan chiqqan, ozodlikdan mahrum etish muassasalaridan ozod qilingan, ruhiy kasalliklardan aziyat chekayotgan shaxslar yashamoqda. Ular aholining eng himoyaga daxldor qismi bo'lib, davlat yordamiga to'la muhtojdir.

AQShda pensiya yoshidagi odamlarning yarmi qariyalar uchun yaratilgan internat-uylarda yashamoqda. Evropada bu ko'rsatkich past bo'lsa-da, ammo 60-70 yoshdan oshgan aholi vakillari alohida yashash joylariga borishni istashmoqda. Ularni hayot tarzi ham, o'z uylarida bola-chaqalari bilan yashash ham qoniqtirmayapti.

Qariyalarga yomon munosabatda bo'lish va ularning manfaatlarini e'tibordan chetda qoldirish global miqyosda tobora jiddiy muammoga aylanib bormoqda. Bunga siyosatchilar, ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari ko'proq e'tibor qaratishmoqda.

Yaqinda Ispaniyada o'tkazilgan tadqiqot natijalari qari ayollar axloqiy, moliyaviy tahqirlashlar qurboni bo'layotgani, keksa erkaklar esa yolg'izlikdan aziyat chekayotgani yoki yaqinlarining g'amxo'rligidan to'liq mahrum ekanini ko'rsatdi. Shifokorlar, tibbiyot hamshiralari, ijtimoiy xodimlar va boshqa vakillar ham ularga nisbatan etarlicha muloyim va yaxshi munosabatda bo'lmayotgani aniqlandi.

G'arbda yoshlarning nuroniylarga e'tiborsizligi, itoatsizligi, nopisandligi, mehr-oqibatsizligi, nasihatga quloq solmasligi, faqat o'zini o'ylab yashashi odatiy holga aylanib bormoqda. Ota-onalarni qariyalar uylariga yoki maxsus pansionatlarga joylashtirish, yolg'izlikka mahkum qilish hech qanday uyatli ish hisoblanmay qo'ydi.

AQSh prezidenti Barak Obama o'z xolasi Bostondagi qariyalar uyida vafot etgan chog'ida yakka-yolg'iz bu qarindoshini juda yaxshi ko'rganini, biroq unga umrining adog'ida hech qanday yordam bera olmaganini alam bilan tan olgani aholi o'rtasida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan edi. Bu okean orti mamlakatida nechog'lik ahamiyatli mavzuga aylanganidan dalolat beradi. Odamlar ish va yumushdan ortib qari qarindoshlaridan hol-ahvol so'rashga vaqt topa olishmayapti.

Ayrim davlatlarda (Frantsiya va Germaniya) amaldagi pensiya ta'minoti tizimi demografik vaziyatlarga, bozor iqtisodiyotining beqarorligi hamda mavjud ijtimoiy qarama-qarshilik tufayli jiddiy qiyinchiliklarga duchor bo'lmoqda.

Yaponiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda 60 yoshdan oshganlar ulushi ko'payishi natijasida mamlakat yalpi ichki mahsulotining sezilarli qismi pensionerlarning ehtiyojiga qaratilayotgani milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Buyuk Britaniyada qarilikda duchor bo'linadigan xastaliklardan aziyat chekayotgan 700 ming fuqaroga yordam berish uchun kamida million nafar ko'ngilli zarur. Hukumat 2014 yilda bu borada "Dementsiya do'stlari" (Dementia Friends) maxsus ijtimoiy dasturlarini joriy qildi. Hozir dementsiya xarajatlari Buyuk Britaniya byudjetiga yiliga 23 milliard funt sterlingga tushmoqda va bu yukni ko'ngillilar xizmati hisobidan kamaytirish g'oyatda dolzarb bo'lib turibdi.

Umuman olganda, bugun dunyoda keksalar bilan bog'liq ana shu kabi masalalar ko'ndalang turibdi. Agar ularni yurtimizdagi vaziyat bilan taqqoslasa, butkul o'zga manzara hosil bo'ladi: mamlakatimizda keksalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning hayot darajasi va sifatini oshirish, bu boradagi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, pensiya ta'minoti va ijtimoiy

qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Zero, har qanday jamiyatning yutug'i uning keksalarga bo'lgan munosabatida ko'rinadi, deya bejiz aytilmagan.

So'nggi yillarda dunyoning rivojlangan davlatlarida insonlar kamayishi, rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlarda esa keskin oshayotgani kuzatilmoqda. 1 million yil muqaddam Er yuzida aholi taxminan 125 ming kishi bo'lgan, 300 ming avval 1 million kishiga etgan. Eramizning birinchi yilida ular soni 300 millionni, 1800 yilda 1 milliardni, 1960 yilda 3 milliardni, 2014 yilda 7,2 milliardni tashkil qildi. Mintaqalarda tug'ilish va o'lish o'rtasidagi farqning kattaligi natijasida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlaridan Evropa, Shimoliy Amerika va Rossiyaga migratsiya tobora kuchaymoqda. Ko'plab davlatlarda pensiyaga chiqish yoshi 65 va undan katta qilib belgilanganiga qaramay, BMT va Xalqaro mehnat tashkiloti hujjatlarida 60 yosh va undan kattalar keksa kishilar, deb hisoblanadi. Ilk pensiya ta'minoti Frantsiya harbiy dengiz floti ofitserlari uchun 1673 yilda joriy etilgan. 1790 yildagi "Buyuk frantsuz inqilobi" davrida Davlat xizmatchilari uchun fuqarolik pensiyasi haqidagi qonun qabul qilindi. U 30 yil mehnat qilgan va ellik yoshga to'lganlar uchun mo'ljallangan edi. Ommaviy va universal pensiya ta'minoti 1889 yilda Germaniyada, 1908 yilda Buyuk Britaniyada va 1910 yilda Frantsiyada joriy qilindi.

Hozirda ko'plab mamlakatlarda pensiyaga 65 yoshdan chiqiladi. Evropa va AQShda yaqin yillar ichida bu chegarani 70 yosh qilib belgilash nazarda tutilmoqda. 2005 yildayoq Evrokomissiya Evropa Ittifoqi mamlakatlari pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirib borishi zarurligi bo'yicha tegishli tavsiya bergan. 2060 yilga borib iqtisodiy nuqtai nazardan optimal variant 70 yosh atrofida bo'ladi.

Iqtisodiy bankrotlik yoqasiga kelib qolgan Gretsiya bu borada juda o'tkir muammolarga duch kelyapti. Greklar 37 yillik ish stajiga ega bo'lsa, 58 yoshda pensiyaga chiqishi mumkin edi. Shu kunlarda hukumat minimal ish stajini 40 yil qilib belgiladi. Boz ustiga, Gretsiya hukumati Fuqarolik holati dalolatnomalarini

yozish organlari bilan pensiya jamg'armasi hamkorligini yaxshi yo'lga qo'ymagani bois jiddiy muammolar yuzaga keldi. "Gretsiya ijtimoiy hayotida g'alati holat fosh etilgan va rasmiy choralar ko'rilgan edi. Ya'ni vafot etgan pensionerlar pensiyasi ularning qarindoshlariga berib kelingan. Pensionerlarning o'lgani hech qaerda qayd etilmagani bunga sabab bo'lgan. Bunday holat 63,5 mingtani tashkil etgani, ayniqsa, ajablanarlidir. Keyingi tekshiruvlarda yana 50 mingta shunday holat aniqlandi".

Frantsiyada bu chegara 60 yosh qilib belgilangan. Ammo sobiq prezident N. Sarkozi uni 62 yoshga ko'tarish bo'yicha qaror qabul qilgan edi. Yangi saylangan prezident F. Olland ham bu siyosatni izchil davom ettirmoqda.

"Agar hukumatlar 2050 yilga qadar pensiya yoshini ko'tara olmasa, Evropada pensiya jamg'armalari taqchilligi yiliga 100 milliard evrodan kam bo'lmaydi. Ammo kasaba uyushmalari va muxolifat vakillari bunday choralar bilan kelisha olmayapti".

Evropa Ittifoqi (EI)ning 12 mamlakatida 10 million qariya jiddiy va uzoq davom etadigan jismoniy yoki psixologik tUSDagi kasalliklarga chalingan. Bu esa ko'mak zarur shaxslarga tibbiy, sanitar, ijtimoiy va huquqiy yordam ko'lamini oshirishni taqozo qilmoqda. Shu ma'noda Buyuk Britaniya tajribasi e'tiborga molik. Bugun Evropadagi ishchi o'rinlarining 60 foizini 30 dan 50 yoshgacha bo'lganlar, 40 foizini esa 50 yoshdan oshganlar tashkil qilayotganining o'ziyoq muammoning nechog'li dolzarbligini ko'rsatib turibdi. Hayot darajasi yaxshilangani bois odamlarning umri ham uzayib boryapti. Lekin ularga umrining oxiriga qadar pensiya to'lash, munosib yashash sharoitlarini yaratib berishni davom ettirish davlat zimmasida. 2010 yilda pensiya jamg'armalaridagi defitsit 300 milliard evroni tashkil qildi. Gollandiya banki pensiya miqdorini o'rtacha 3 foizga kamaytirdi. Boshqalar undan o'rnak olmoqda. Xullas, qari ham, yosh ham ko'proq ishlashiga, o'z istiqboli uchunko'proq sarmoya kiritishiga to'g'ri kelmoqda. "Moody's" baholash agentligi hisobotida keltirilishicha, 2020 yilga borib dunyoda "qarigan" mamlakatlar soni 13 taga, 2030 yilda esa 34 taga ko'payadi. Hozir aholisining 20 foizidan ko'pi 65 yoshdagilarni tashkil qiluvchi

mamlakatlar safida faqat 3 ta davlat – Germaniya, Italiya va Yaponiya bor. Agentlikning ogohlantirishicha, aholining beqiyos sur’atda qarib borishi jahonning aksariyat mamlakatlarida jiddiy iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Aholi qariyotgan va ish haqlari oshayotgan hozirgi sharoitda aqlli, tezkor va odamlar bilan yaxshiroq munosabatga kirisha oladigan robotlarni mehnatga jalb qilishga katta e’tibor qaratilyapti. Hozir Xitoyda har 10 ming ishchiga 30 ta, Janubiy Koreyada 437 ta, Yaponiyada 323 ta, Germaniyada 282 ta, AQShda 152 ta robot to’g’ri kelmoqda. Xalqaro robot texnikasi federatsiyasi ma’lumotlariga qaraganda, 2014 yilda Xitoyda sanoat robotlari soni 55 ming bo’lgan bo’lsa, 2019 yilga borib ular 211 mingdan oshadi.

Avvallari iqtisodiy o’sishni rag’batlantirgan “demografik dividendlar” endilikda “demografik soliqlar”ga o’zgarmoqda. Qarish jarayoni faqat rivojlangan davlatlar muammosi emas. Rossiya, Tailand, Chili va Xitoyda ham demografik ahvol tez yomonlashmoqda. Hatto nisbatan yosh hisoblangan Braziliya va Turkiya ham qarimoqda.

Xalqaro valyuta jamg’armasi ekspertlari ishonchiga ko’ra, insoniyatning qarishi taraqqiyotga jahon iqtisodiy inqirozidan ham yomonroq zarba bo’lar ekan. Daniya, Finlyandiya, Frantsiya, AQSh va boshqa taraqqiy etgan davlatlarda pensiya haqlarining yuqori darajada saqlanib qolayotgani aholining katta qismi (80 foizi) jamg’arib boriladigan tizimlarda ishtirok etayotgani bilan bog’liq. Osiyoda bu ko’rsatkich 40 foizni, Afrikaning qoloq davlatlarida esa atigi 5 foizni tashkil qiladi.

“Afrikaning ko’plab mamlakatlarida, jumladan, Svazilend, Angola, Lesoto, Botsvana, Zimbabve, Janubiy Afrika Respublikasi, Namibiya, Zambiya, Malavi, Markaziy Afrika Respublikasi, Mozambik va Gvineya-Bisauda OITS tufayli umr ko’rish davomiyligi juda pastligicha qolmoqda. Aholining katta yoshdagi qatlami orasida bu kasallikni yuqtirganlar ulushi 10 foizdan 26 foizgacha bo’lmoqda”.

Aniq hisob-kitoblarga qaraganda, uchinchi dunyo mamlakatlarida hozirgi vaqtda “342 million keksa sog’lig’ining yomonlashuvi, mehnatga yaroqliligi va

daromad manbalarini yo'qotishi bilan bog'liq qaltisliklardan himoya qilinmagan. 2050 yilga borib ularning soni 1,2 milliard kishiga ortishi mumkin”.

Shu ma'noda BMT Nizomida insonning asosiy huquqlari, shaxsning sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Barcha taraqqiy etgan mamlakatlarda inson hayoti va sog'lig'iga uning ajralmas huquqi sifatida qaraladi. 1982 yil 26 iyul – 6 avgustda Venada BMTning qarish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan birinchi Butunjahon Assambleyasida aholining qarish jarayoni global tus olayotgani, bu bashariyat oldida turgan hal qilinishi birlamchi vazifalar sirasiga kirishi qayd etildi. Xalqaro harakatlar rejasi doirasida 7 ta (sog'liqni saqlash va ovqatlanish, keksalarning iste'molchi sifatidagi muhofazasi, turarjoy va atrof-muhit, oila, ijtimoiy muhofaza, daromadlar va bandlikni ta'minlash, ta'lim) yo'nalishda tavsiyalar ishlab chiqildi. Qarish muammolari bo'yicha Butunjahon Assambleyasi qabul qilgan va 1982 yil 3 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 37/51 rezolyutsiyasi bilan ma'qullangan, Xalqaro mehnat tashkiloti, Butunjahon Sog'liqni saqlash tashkiloti va BMTning boshqa muassasalari tavsiyalariga asoslangan holda ishlab chiqilgan Qarish muammolari bo'yicha xalqaro harakat dasturi bu borada muhim omil bo'ldi.

1982 yilda qabul qilingan Qarish muammolari bo'yicha Vena xalqaro harakat rejasida, jumladan, shunday deyiladi: “Inson huquqlari bo'yicha butunjahon deklaratsiyasida belgilangan asosiy va bo'linmas huquqlar to'liq va hech qanday istisnalarsiz qarish jarayonlariga ham tatbiq qilinadi”.

BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA) hukumatlarga bu borada yordamlar ko'rsatishda, qariyalar holati haqidagi ma'lumotlar va axborotlar yig'ish amaliyotini takomillashtirishda, keksalar ahvoliga daxldor masalalar haqida ma'lumotlar olishni kuchaytirishda muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, jamg'arma jahonning barcha mamlakatlari hukumatlari bilan qariyalar sohasida milliy siyosatni va huquqiy-me'yoriy bazani shakllantirish ustida ishlamoqda.

1991 yil 16 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi Qariyalar huquqlari deklaratsiyasini qabul qildi. Ayni shu kuni BMT Bosh Assambleyasi keksa yoshdagi shaxslarning to'laqonli hayot kechirishini ta'minlash maqsadida

qariyalarga munosabatda BMT tamoyillarini ifoda etuvchi 46/91-sonli rezolyutsiyasini tasdiqladi. O'z jamiyatlari rivojiga qariyalar munosib hissa qo'shgan yuksak baholanib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar xalqaro pakti, Fuqarolik va siyosiy huquqlar haqidagi xalqaro paktdan, aholining aniq guruhlariga munosabatda universal me'yorlarni amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan boshqa deklaratsiyalardan kelib chiqqan. Unda har bir insonning munosib turmush kechirish, hurmat-izzatda bo'lish va baxtli keksalikka huquqi borligi belgilanadi.

“Keksalarga munosabatda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tamoyillari va 2002 yildagi Qarish muammolari bo'yicha Madrid xalqaro harakat rejasida davlatlar qariyalarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga, ularga shafqatsizlik va zo'ravonlik qilmaslikka, huquqlarini kamsitmaslikka sodiqliklarini bildirdi”. Xalqaro qariyalar kuni (International Day of Older Persons) 1991 yil 1 oktyabrdan buyon dunyo miqyosida keng nishonlab kelinmoqda. 1990 yil 14 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 45-sessiyasida №A/RES/45/106-sonli rezolyutsiya qabul qilinib, unga ko'ra 1 oktyabr – Xalqaro qariyalar kuni sifatida nishonlanishi belgilangan. Hujjatda BMT qarilik muammolari bo'yicha maqsadli jamg'armasiga bo'naklar kamayayotgani qayd etilib, jahon aholisi jadal sur'atda qarib borayotgani tan olindi. Shuningdek, qariyalar taraqqiyot jarayonlariga salmoqli hissa qo'shishga qodir ekanligi e'tirof etildi. Bosh Assambleya nodavlat tashkilotlari va hukumatlarni mazkur jamg'armaga mablag'lar ajratishga chaqirdi. Shu tariqa 1991 yildan boshlab har yilning 1 oktyabrida dunyo miqyosida qariyalar huquqlarini himoya qilishga, ularning jamiyatdagi o'rnini ochib berishga qaratilgan turli festivallar va anjumanlar o'tkazib kelinadi, jamoat tashkilotlari va jamg'armalar shu kuni xayriya tadbirlari uyushtiradi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini boshqarish organlarining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalar va takliflarga keldik:

1. O'zbekistonda pensiya ta'minoti aholini ijtimoiy himoyalash tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Pensiya ta'minoti deyarli barcha fuqarolarning hayotiy manfaatlari bilan bog'liq, fuqarolar mehnat qobiliyatlarini yo'qotganlarida shu tizim orqali ijtimoiy himoya qilinadi.

2. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash talabi kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda yangicha amaliy va samarali shakllarni qo'llashni talab etadi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, pensiya tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish mamlakatlarda ijtimoiy muammolarni hal qilish va keksa kishilarni himoyalashda muhim o'rin egallaydi. Pensiya tizimi aholining ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlash va konstitutsion huquqlarini amalga oshirish uchun yo'naltirilgan pul mablag'lari jamg'armasidan foydalanishga asoslanadi.

3. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar va tendentsiyalar fuqarolarimiz turmush sharoitini yanada yaxshilash, inson manfaatlarini ta'minlash sohasidagi ishlarimiz miqyosini uzluksiz ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Keyingi yillarda davlat tomonidan pensiya qonunchiligini takomillashtirish, davlat pensiyalarini tayinlash va to'lashni amalga oshirish tizimidagi keng ko'lamli tadbirlardan ko'zlangan maqsad ham zamon talablarini hisobga olish hamda o'zgarib borayotgan sharoitga moslashishdan iborat.

4. Hozirgi zamon pensiya ta'minoti tizimini o'rganish quyidagilarni aniqlash imkonini berdi:

–birinchidan, demografik va makroiqtisodiy omillarning bevosita ta'sirida pensiya ta'minoti tizimi isloh etib boriladi, shu munosabat bilan ularga ma'lum muddatlarda tegishli o'zgartirishlar kiritish talab etiladi;

–ikkinchidan, nodavlat pensiya ta'minoti davlat tomonidan tartibga solinadi. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida pensiya ta'minotining davlat va xususiy

tizimlari bir-birini o'zaro to'ldiruvchilar hisoblanadi. Ushbu jarayon taraqqiyotning ijtimoiy maqsadlariga erishish uchun bozor mexanizmi bilan taqsimlashning davlat mexanizmi uyg'unlashgan holda qo'llanishini taqozo etadi;

–uchinchidan, pensiya ta'minoti umumiylikdan xususiylikka qarab rivojlanib bormoqda, ushbu holat pensiya ta'minoti ishtirokchilarida qo'shimcha moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlar shakllanishiga olib keladi.

5. O'zbekistonda demografik vaziyat tahlili ko'rsatishicha, kelajakda ishlayotgan fuqarolar soni bilan pensionerlar soni o'rtasidagi nisbat kamayib boradi va ishlayotganlarning badallari pensiyalarni to'lash uchun ham yetmaydi va Pensiya jamg'armasi xarajatlarini qisqartirishni taqozo qiladi.

6. Pensiya jamg'armasi daromadlarini tashkil etishda bir xil muddatda qatnashganlari holda, ayollar Pensiya jamg'armasidan 10-12 yil davomida ko'proq pensiya oladilar. Bu sharoitda ayollarning pensiyaga chiqish yoshlari erkaklarnikidan 5-6 yilga erta bo'lishi ayrim bahsli munozaralarga sababchi bo'lmoqda. Bu ayollar erkaklarga nisbatan 10-12 yilga ko'proq ishlashi va pensiyaga kechroq chiqishi kerak degan talabni ilgari surish emas. Ammo jamiyat oldida mazkur muammoning mavjudligi real holatdir. Mazkur holat hozirgi kunda jahonning ko'pgina mamlakatlarida ayollar va erkaklarning pensiyaga chiqish yoshlarini tenglashtirishga sabab bo'ldi. Agar pensiyaga chiqish yoshi erkak va ayollar uchun 2 yilga ko'tarilsa, Pensiya jamg'armasining yillik xarajatlarni 18-20 foiz kamaytirish imkoni bo'ladi.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huqukiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-son Qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomning Umumiy Qoidalarida «pensiyaga oid hujjatlar yig'majildi» - ular asosida pensiya so'rab murojaat qilgan shaxsga pensiya tayinlangan hujjatlarning tikilgan turkumi, deb ta'rif berilgan. Bizning fikrimizcha, «pensiyaga oid hujjatlar yig'majildi» - pensiya tayinlanishini so'rab

murojaat qilgan shaxsga pensiya tayinlash uchun asos bo'lgan hujjatlarning tikilgan turkumidir, deb o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

8. «Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga ko'ra, pensiyaga oid hujjatlar yig'majildi turadigan joy - pensiya olish joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limidir. «Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomdagi «pensiyaga oid hujjatlar yig'majildi turadigan joy»ni «pensiyaga oid hujjatlar yig'majildi saqlanadigan joy», deb o'zgartirishni taklif qilamiz.

9. O'zbekiston Respublikasida «Nodavlat ijtimoiy sug'urta to'g'risida»gi Qonunni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

10. Nodavlat pensiya jamg'armalarini shakllantirish, ularning faoliyat ko'rsatish tartibini, davlat va jamiyat oldidagi javobgarligini, ushbu jamg'armalarning ishtirokchilar bilan munosabatlarini aniqlashtirilgan «Xususiy pensiya jamg'armasi to'g'risida»gi Qonunni ishlab chiqishni taklif kilamiz.

11. O'zbekistonda pensiyalarning katta miqdori «O'zbekiston pochta» OAJ ning hududiy filiallari tomonidan yetkazib beriladi. Pensiyalarni pensionerlarning uylariga yetkazib berishdagi xarajatlarni qoplash uchun har oyda umumiy summaga nisbatan 0,9 foiz miqdorida mablag' ajratiladi. Bu borada pensiya to'lovlarini xorijiy mamlakatlardagi kabi banklar orqali, O'zbekistonda Xalq banki orqali to'lanishi, ya'ni pensiyalarni pensionerlarning hisob raqamlariga o'tkazilishini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. To'lovlarning bunday uslubda amalga oshirilishining afzalligi shundaki, to'lov harajatlarini keskin qisqartirish bilan bir qatorda naqd pulga bo'lgan katta ehtiyojni kamaytiradi. Pensionerlar hisobraqamida qoladigan mablag'larni iqtisodiyotni investitsiyalashga yo'naltirish imkonini beradi. To'lovlarning bank orqali amalga oshirilishini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Xalq bankida pensiya to'lovlarini to'lash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

12. Mamlakatimizda pensiya ta'minotiga oid qonunchilikni bir xil qo'llash, bir xil tushunish sohasida qiyinchiliklar mavjudligi, me'yoriy hujjatlarining murakkablik darajasi yuqoriligini e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

13. Pensiya jamg'armasi daromadlarini yig'ish va mablag'larni sarflashni tartibga solish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

– sotilgan mahsulotlar hajmidan majburiy ajratmalar, yagona ijtimoiy to'lovlarni to'lashi lozim bo'lgan har bir yuridik shaxslarni aniq hisobini yuritish;

– har bir fuqaro tomonidan to'lanayotgan sug'urta badallarining shaxsiy hisobini yuritish;

– har bir fuqaroning ish stajlarini hisobini yuritish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., O‘zbekiston 1992 yil.
2. “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentabrdagi 938-XII-son Qonuni.
3. “Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 1998 yil 1 mayda tasdiqlangan yangi tahriri (616-I-son Qonun).
4. “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 2004 yil 2 dekabrdagi 702-II-son Qonuni.
5. “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006 yil 7 oktabrdagi 88-sonli va 282-V sonli qarori asosida tasdiqlangan.
6. “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 iyuldagi 162-son Qonuni.
7. “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida. O‘zbekiston Respublikasi qonuni.2007 yil 7 dekabr,O`RQ-119-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi -T., O‘zbekiston 2008 yil.
9. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi- T., O‘zbekiston 2010 yil.
10. “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 2010 yil 22 dekabr,O`RQ-272-son.

11. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida. O‘zbekiston Respublikasi qonuni.2012 yil 5 yanvar,O`RQ-318-son.

12. O‘zbekiston Respublikasining “Budjet kodeksi” T. 2013 yil 26-dekabr.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Aholining ish bilan bandligini kengaytirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2008 yil 29 dekabrda PQ-1024-son Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-1449-son 24.12.2010.

15. “O‘zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-1675-son 30.12.2011.

16. “O‘zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-1887-son 25.12.2012.

17. “O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-2099-son 25.12.2013.

18. “O‘zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to’g’risida”gi Prezident qarori. PQ-2270-son. 4.12.2014.

19. “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to’g’risida”gi Prezident qarori. PQ-2455-son. 22.12.2015.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2009 yil 30 dekabrda PQ-1252-son Qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning pensiya ta‘minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2009 yil 30 dekabrda PF-4161-son Farmoni.

22. “O‘zbekiston Respublikasi Ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida” Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 2 aprelda 173-son qaroriga 1-ilova.

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 aprelda 107-sonli “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy xujjatlarni tasdiqlash haqida”gi Qarori.

24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.05.2011 yil 145-son Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrda 595-son Qarori bilan tasdiqlangan ‘Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida” gi Qarori.

25. “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 21.12.2004 yil 595-son qarori.

26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12 dekabr 2012 y.dagi 350-son “Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

27. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15 fevral 2013 y.dagi 44-son “Kam ta‘minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 21 noyabr, PF-4672-sonli “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni

29. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2011 yil 14 ktyabr, 63-son “Pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish tartibi hamda pensiya hujjatlarining shakllari va ularni to‘ldirish qoidalari to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” gi buyrug‘i

30. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015 yil 30 yanvar,6-son “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiya, nafaqa va boshqa to‘lovlarni to‘lashni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” gi buyrug‘i

31. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. – Prezident I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 07.12.2010.

32. Prezident I.Karimovning BMT Sammiti Mingyillik Rivojlanish Maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. Xalq so‘zi // 21.09.2010

33. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.

34. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Toshkent.: “O‘zbekiston”. 2011 y. 52 b.

35. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. -T.: O‘zbekiston. 2012 y. 58 b.

36. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish” – T.: O‘zbekiston. 2013 y. 57 b.

37. I.A. Karimov “2014 yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini

izchil davom ettirish yili bo‘ladi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 18.01.2014 yil

38. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir” O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 19.01.2015 yil.

39. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 15.01.2016 yil.

II. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

1. Allayarov Sh., Toshmuxammedova D.. Davlat pensiya ta‘minoti (o‘quv qo‘llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014y. 251 b.

2. Антропов В.В. Социальная защита в странах Европейского союза. Монография. -Москва.: Издательство «Экономика».2006 г. 173стр.

3. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. –T.: «Mehnat». 2004. - 670 b.

4. Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. – М.: “Вузовский учебник”. 2011. -224 с.

5. Eroshenkov C.G. Переход к накопительной пенсионной реформе: мировой опыт и возможности применения его в России. - М: МАКС Пресс., 2012. - 251 с.
6. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg'armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. 112 b.
7. Nurmuxamedova B., Kabirova N. "Moliya", O'quv qo'llanma. T., Iqtisod-moliya, 2014 y. 207 bet
8. Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010y. 500 bet
9. Xaitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. -T.: "Adolat". 2009. -172 b.
10. Qosimova G.A. Ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda budjet siyosati. «Moliya». T., 2004. 152 b.
11. Qosimova G.A. Ijtimoiy siyosatning yo'nalishlari. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2008. 112 b.
12. Qosimova G.A., Karimova Z.X. Budjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. -T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2009. - 212 b.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

1. Alimova G. Ijtimoiy sug'urtaning mazmun mohiyati va nazariy asoslari. // Birja Ekspert. -Toshkent. 2012. №6. – B.10-12.
2. Allayorov Sh., Mirzamaxmudov M. Pensiya jamg'armasi faoliyatining jahon amaliyotidagi taraqqiyot bosqichlari. // Moliya. -Toshkent. 2012. №4. – B.134-139.
3. D.R.Vahobov. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent, 2010.- № 4.– B. 21-27.
4. Vaxabov D.R. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pensiya tizimini takomillashtirishning yo'nalishlari" mavzusi bo'yicha iqtisod fanlari

nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2012 -22 b.

5. Vaxabov D.R. Jahon pensiya tizimining asosiy yo‘nalishlari // Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion faoliyatni investitsiyalash. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya tezislar to‘plami.– Toshkent, 2010. – B. 241-244.

6. Shokirova F. Innovatsion rivojlanish modellari va iqtisodiy o‘shish. // Moliya. –Toshkent. 2012. №3. –B. 73-79.

7. Xaydarov M. Davlat budjetining asosiy parametrlari obod turmush yilini ta‘minlash omili sifatida. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2013. -№1. – B. 6-9.

IV. Internet saytlari:

- www.gov.uz-(O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali);
- www.ziyonet.uz-(Axborot ta‘lim tarmog‘i);
- www.soliq.uz-(O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi);
- www.lex.uz-(O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari milliy bazasi portali);
- www.publicfinance.uz-(O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimini isloh qilish loyihasi portali);
- www.stat.uz- (O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi);
- www.pfru.uz-O‘zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya Jamg‘armasining rasmiy sayti.